

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

HAMIDOV OBID

**XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA
FORS KO'RFAZI MINTAQASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rildi va himoyaga
ruxsat berildi: "Umumiy tarix"
kafedraasi mudiri
_____ dots. M.M.Hoshimova
" " _____ 2014 y.

Ilmiy rahbar:
_____ ass. Gadoyev H.U.

SAMARQAND 2014

Mundarija

Kirish.....	3
I-bob. Fors ko'rfazi hududi bilan bog'liq muammolarning vujudga kelishi.	
1.1. Jahonda Yaqin Sharq va Fors ko'rfazining o'rni, qisqacha tarixi va geografik joylashuvi.....	7
1.2. Bo'lingan dunyoni qayta bo'lish uchun kurashning boshlanishi. Fors ko'rfazining neftiga bo'lgan qiziqishning ortib borishi.....	10
II-bob. Angliya va Germaniyaning Fors ko'rfazi hududiga kirib kelishi va ziddiyatlar.	
2.1. Angliyaning Fors ko'rfazidagi maqsadlari.....	15
2.2. XIX asr oxirida Germaniyaning imperialistik rejalari va unda Usmoniylar imperiyasining o'rni.....	22
III-bob. Germaniyaning fors ko'rfaziga kirib kelishi va Bog'dod temir yo'li masalasi.	
3.1. "Bag'dod temir yo'li" bilan bog'liq muammolar xalqaro munosabatlarda.....	27
3.2. Birinchi jahon urushida Germaniyaning Sharq siyosati.....	40
Xulosa.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar.....	49
Ilovalar.....	51

Kirish

Dunyoda har bir hududning geografik joylashuvi, u yerdagi yer osti va yer usti boyliklari uning dunyoning geosiyosiy tartibi va tuzilishiga tasiri belgilab berishi mumkin. Sababi har doim va barcha zamonlarda zaruriy qazilma boyliklarning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga tasiri mavjud bo'lgan.

Shunday hududlardan biri Fors ko'rfazi bo'lib, uning asosiy xususiyati bir necha o'n yillardan buyon uning neftga o'ta boyligi bilan belgilanib kelmoqda. XX asr boshlariga kelib yangi transport turi bo'lgan avtomobillar va boshqa texnikalar o'tgan asrga nisbatan juda tez taraqqiy eta boshlashi natijasida neftga bo'lgan talab mana bir necha o'n yillardan buyon tinimsiz ortib bormoqda va uning muhim manbalariga ega bo'lish uchun qator urushlar va harbiy to'qnashuvlar ham yuz berganligi hech kim uchun sir emas.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalardagi o'zgarishlar barcha davlatlar tomonidan etirof etilmoqda. Sababi sifat o'zgarishlarining mamlakat miqiyosida amalga oshirilib borishi natijasida barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va madaniyat yo'nalishlari ham muntazam yangilanib, o'zgarib bormoqda.

Tarix faniga e'tibor ham shu tarzda ortib bormoqda. Bunda birinchi galdagi vazifa bu xalqimiz va yurtimizning yangi tarixini yaratish, yaratganda ham uni haqqoniy ravishda yozish. Undan tashqari dunyoga tezroq va oson integrasiyalashuv uchun jahon xalqlari va mamlakatlari tarixini o'rganish va ularning ibratli va foydali tomonlarini yurtimizning yanada taraqqiy etishi uchun ishlatish masalasigi alohida etibor qaratilmoqda. Shu sababli tarixni va barcha mamlakatlarning o'tmishini yoritib berishda xolislikka amal qilish lozimligini ta'kidlab, quyidagilarni aytib o'tgandi. «Biz tariximizni yoritishda uni davr, muayyan talqin siyosiy guruhlar yoki ayrim shaxslar manfaatiga moslab talqin etishni qoralaymiz. G'oyat murakkab va ziddiyatli tariximizni xolisona va ilmiy

o'rganish – tarixchi olimlarimizning masuliyatli va oliyjanob vazifasi deb hisoblaymiz»¹.

Shunday ekan tariximizning ma'lum bir bosqichlarini ham, bir hudud bilan bog'lab o'rganish uchun Fors ko'rfazi yoki Yaqin Sharq mamlakatlari bilan tariximizning bog'liqligi juda ko'p. Sababi doimiy ravishda biror bir imperiya, davlat tarkibida bo'lgan hududlarning bir-biri bilan aloqalari tarixiy nuqtai nazardan ajralmasdir. Dastlab Eron ahamoniylar, keyinchalik Aleksandr Makedonskiy, salavkiylar davlatlari tarkibida birga bo'lgan va tarixiy aloqalar yanada rivojlangan. Arab xalifaligi davrida esa barcha sohalardagi aloqalar o'zining yuksak darajasiga chiqadi.

Fors ko'rfazi davlatlari sifatida Eron, Quvayt, Iroq, Qatar, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlarni kiritish mumkin. Yaqin Sharq tushunchasida esa geografik hudud yanada kengayib, unga Suriya, Falastin, Turkiya, Isroil, Livan va boshqa davlatlarni ham kiritib o'tishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilganidek keng geografik hududda joylashgan davlatlarning tarixi juda olis o'tmishga borib taqaladi va bu yerda insoniyat tarixiy taraqqiyotining ilk sivilizasiyalari vujudga kelgan hudud hamdir. Misol uchun Mesopatamiyadagi qadimiy davlatlardan Bobil podsholigi, Ahamoniylar davlati, Elam, Midiya, Falastin davlati va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Mavzuning o'rganilish darajasini yetarlicha deb aytishimiz mumkin. Ayniqsa Fors ko'rfazining yirik neft manbalariga egaligi va ularning iqtisodiy darajalari ortib borishi ularga nisbatan qiziqishni oshirib yuboradi. XX asrning 90-yillarida esa mazkur qiziqishlar Iroq va uning atrofida yuz berayotgan siyosiy jarayonlar sababli yanada ortdi.

Yurtimiz tarixchilari ham sobiq ittifoq davrida mazkur mavzuga bir necha marta murojaat qilganlar. Bunda tarixchi Bondarevskiy tomonidan yozilgan ikki kitobning 1955- yilda Toshkentda nashr qilingan aynan XIX va XX asrlarda Yaqin Sharqqa nisbatan qiziqishlarning ortib borganligini o'zining «Борьба

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. 1998. 14-бет

империалистов за господство над Персидским заливом на рубеже XIX и XX вв» va «Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток» kitoblarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Shu bilan birga mazkur mavzu yuzasidan ko'plab tarixchi va tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy izlanishlarining natijalarini e'lon qilishgan bo'lib, bunda biz asosiy etiborni keyingi yillarda, 1990 -yillardan keyin bajarilgan ishlarga qaratdik. Sababi shu davrga qadar ham ko'plab asarlar shu mavzu yuzasidan nashr qilingan, ammo ularning barchasi davr nuqtai nazaridan kelib chiqib yozilgan va ularni bir tomonlama yoki tanqidiy ko'rib chiqish mumkin.

Ularning orasida A.S. Avetyanning 1966- yilda nashr qilingan «Германский империализм на Ближнем Востоке»², G.L. Bondarevskiyning «Борьба империалистов за господство над Персидским заливом на рубеже XIX и XX вв»³, «Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток»⁴ va 1968-yilda nashr qilingan «Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.)»⁵, A.G. Knyazevning 1988- yilda nashr qilingan «Персидский залив: истоки напряженности»⁶, L.I. Medvedkoning 1982- yilda nashr qilingan «Ветры перемен в Персидском заливе»⁷, A.S. Silinning 1976- yilda nashr qilingan «Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914)»⁸ va 1971- yilda nashr qilingan

² Аветян А.С. Германский империализм на Ближнем Востоке. - М., 1966.

³ Бондаревский Г.Л. Борьба империалистов за господство над Персидским заливом на рубеже XIX и XX вв. Ташкент, 1955.

⁴ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955.

⁵ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968⁵.

⁶ Князев А.Г. Персидский залив: истоки напряженности. М., 1988

⁷ Медведко Л.И. Ветры перемен в Персидском заливе. М., 1982

⁸ Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976

«Экспансия Германии на Ближнем Востоке в конце XIX века»⁹, В. М. Туполева 1991- yilda nashr qilingan «Германский империализм в борьбе за «место под солнцем»¹⁰ va boshqa ilmiy kitoblarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Boshqa asarlarni berib o'tishning u qadar muhim jihati mavjud bo'lmaganligi sababli ularni berib o'tishni lozim topmadik. Mazkur mavzu bo'yicha olingan ma'lumotlarning bir qismi, ayniqsa yangi ma'lumotlardan foydalanishda zamonaviy internet saytlaridagi materiallardan foydalanish muhim o'rin egallaydi.

Mavzuning yakunida kutilgan natijalar sifatida shuni aytish kerakki, barcha berilgan malumotlar bugungi kunga qadar rus tilida bo'lib, ularni o'qish uchun o'zbek tilida ta'lim oluvchi talabalar uchun malum anglashilmovchiliklar va noaniqliklar yuzaga kelishi tabiiy hol edi. Shu sababli ishning bajarilishi natijasida u qadar keng miqiyosida bo'lmasada, Yaqin Sharqdagi bugungi siyosiy vaziyatlarning paydo bo'lishi, ularning yechimiga doir ayrim masalalar va eng muhimi bugungi kunda mintaqa mamlakatlarining dunyo siyosatidagi o'rni bilan ham ma'lum ma'noda tanishish imkoniga ega bo'lishlari mumkin.

Mavzuning yana bir muhim jihati Yaqin Sharq davlatlarining umumiy tarixining qisqa XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi davri yoritilib beriladi. Bu esa arab davlatlari va ularga qo'shni Eron tarixi bo'yicha talabalarning bilimini yanada oshirish uchun xizmat qiladi.

⁹ Силин А.С. Экспансия Германии на Ближнем Востоке в конце XIX века. М., 1971

¹⁰ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991

I-bob. Fors ko'rfazi hududi bilan bog'liq muammolarning vujudga kelishi.

1.1. Jahonda Yaqin Sharq va Fors ko'rfazining o'rni, qisqacha tarixi va geografik joylashuvi.

Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari va ularning hududlari bir necha million va undan ko'p yillar davomida shakllanib, rivojlanib borgan. Shu sababli mavzuni yoritishning boshlarida hududning geografik va geologik o'rniga etibor qaratishni lozim topdik. Sababi mazkur mintaqaning bu qadar diqqat markazda bo'lib qolishi ana shu jihatlardan ham bog'liq.

Dastlab, Fors ko'rfazi ma'lum darajada katta hududni egallagan edi. Uchlamchi davr oxiriga qadar Borazjan, Bexboxon va Xuziston tekisliklari Elbrus tog' tizmalarigacha bo'lgan hududlari suv ostida bo'lgan. Geologlarning fikriga ko'ra, taxminan 500 ming yil oldin Eron platosi janubi yaqinida Fors ko'rfazining birinchi ko'rinishi shakllangan. Geologik o'zgarishlar natijasida Fors ko'rfazining hozirgi qiyofasi shakllana boshlagan. Fors ko'rfazi – bu yarim oy shaklidagi ulkan yoriq bo'lib, kengligi 240 m va uzunligi 900 metrga teng. Uning maydoni 223 ming km². U Gudzondan keyin dunyodagi ikkinchi katta ko'rfaz hisoblanadi¹¹.

Fors ko'rfazi Hind okeanining katta tarmog'idir. U Aden ko'rfazi sharqqidan barcha dengiz yo'llari trassasida joylashgan bo'lib, shimoliy kenglikdagi 30 ° - 24`` va sharqqiy kenglikdagi 50° - 48 `` oralig'idagi koridorga o'xshaydi. Suv sathi shimoldan va shimoliy sharqdan Eron qirg'oqlari bilan, sharqdan – Ummon ko'rfazi bilan, janub va g'arbdan esa – Arabiston yarim oroli bilan tugallangan. Fors ko'rfazi O'rmuz bo'g'ozi va Ummon ko'rfazi orqali ochiq suv bilan bog'langan. Qadimgi zamonlardan buyon Fors ko'rfazi geosiyosiy ahamiyatga ega. Bu Shaqrning yirik sivilizatsiyalar va qadimiy madaniyat epimarkazi hisoblanadi. Bir necha yuz yillar oldin Elamiylar davlati Busher porti va Xarks orolidan Hindiston va Nil vodiysi bilan savdo va kemalar qatnovi uchun foydalanishgan¹².

¹¹ Князев А.Г. Персидский залив: истоки напряженности. М., 1988. С.54

¹² География нефти. М., 1954. С.45-46

Hozirgi kunda, Fors ko'rfazi dunyoning yoqilg'i resurslarining yarmidan ortig'iga ega bo'lgani uchun xalqaro dengiz magistralida muhim hisoblanadi. Fors ko'rfazi Sharq va G'arb o'rtasidagi savdoni bog'lovchi yo'l hisoblanib, shuning uchun bu hudud qadimdan xalqlar, kolonizatorlar va imperialistlarning kurash va urush sahnasiga aylangan edi. Bu hudud har doim arxeologlar, tarixchilar va geologlar diqqat markazida turgan. Fors ko'rfazining tubi har xil yotqiziqlardan iborat¹³.

Eron tomonlarning tubi balchiqli bo'lsa, ayrim joylar oxaktoshli, g'arbiy hududlar va Baxrayn sohillari esa ochiq rangli gil bilan qoplangan. Fors ko'rfazi mo'tadil iqlimli shimoliy hududda joylashgan, u qoidaga ko'ra, to'rt faslni ham o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak edi, lekin bu mintaqada ikkitadan ortiq fasl bo'lmaydi.

Azar, dey va bazman oylari salqin, qolgan hamma oylarda esa bu yer juda issiq bo'ladi. Eng issiq oy bu – mordad bo'lib, unda harorat selsiy bo'yicha soyada 52 C ° quyosh nuri ostida esa 65 C ° ko'tariladi. Fors ko'rfazi suvlarida qishda po'rtanalar sodir bo'ladi. Fors ko'rfazining namliga qish oylarida 80-70 ° atrofida bo'ladi, yozda esa namlik pasayadi. Fors ko'rfazi suvi boshqa dengizlarniki kabi unchalik ham sho'r emas. Bahor oxirida suvning sho'rlanishi ortadi va yozda eng yuqori darajasiga ko'tariladi¹⁴.

O'rmuz bo'g'ozining borligi Fors ko'rfazida suvning sho'rlanishini nazorat qiladi, ya'ni sho'r okean suvlarini ko'rfazga to'g'ridan – to'g'ri quyilishini oldini oladi. Fors ko'rfazi qirg'oqlari boshqa dengizlarga qaraganda anchagina tinch hisoblanadi. Bu yerda to'fonlar kamdan – kam sodir bo'ladi. Ko'rfaz unchalik ham chuqur emas¹⁵.

Bunga sabab Fors ko'rfazida neft va gaz zaxiralarining mavjudligidir. Suvning chuqurligi ko'rfaz etaklarida 70-90 metrgacha, ko'rfazning yuqorilarida

¹³ Медведко Л.И. Ветры перемен в Персидском заливе. М., 1982. С. 12-13

¹⁴ Павлович М. Борьба за Азию и Африку. Л., 1924.с.85

¹⁵ Павлович М. Борьба за Азию и Африку. Л., 1924. С. 45

suv chuqurligi kamayadi. Frot daryosidan 90 km uzoqlikda bir yog'i 30 metrni tashkil etadi. O'rtacha chuqurligi 50 metrni tashkil etadi, eng yuqorisi esa 100 metrga teng¹⁶.

Bu esa resurslarni olish jarayonini osonlashtiradi. Suvning chuqurligi marvarid olinadigan hududlarga 35 metrni tashkil etadi. Fors ko'rfazi marvaridlari yirikligi va shaffofligi bilan mashhurdir. Baliqchilik ham bu mintaqaning muhim mashg'ulotidan biridir.

Qadimdan Fors ko'rfazi Sharq va G'arbni bog'lagan muhim savdo yo'llaridan biri hisoblangan. Erondan neft konlari topilib ular olina boshlangach Fors dengizining ahamiyati yanada oshdi, Fors hududi neft va gaz zahiralari makoni bo'lishiga qaramasdan bir vaqtning o'zida Eron, Iroq, Quvaty, BAA va Saudiya Arabistonidan olinadigan neftlarni tashish yo'lida ham joylashgan. Shuning uchun, ham Fors ko'rfazi strategik muhim hudud hisoblanadi. Fors ko'rfazi nomining kelib chiqishi – bu yuz yillar davomida saqlangan qadimiy madaniyat izlaridir(Pars ko'rfazi yoki Fars nomi shu yerda yashagan qadimiy xalq forslar nomidan)¹⁷.

Yunonlar bu ko'rfazni “Persikus Sinus” va “Sinus Persikus” deb atashgan. Aynan yunonlar birinchi marta bu hududlarni “Pars” yoki “Persopol” deb atashgan va u “Forslar shahri yoki davlati” degan ma'noni bildirgan. Xalqaro atlaslar tuzish Instituti rahbari Alen Kerolning fikricha: “ Bu Institutning joylarni nomlashdagi strategiyasi ikki omilga asoslanadi; ya'ni buni hal qilishda joy nomining aniq faktlaridan foydalaniladi, odamlar guruhlar tomonidan berilgan nomlar e'tiborga olinmaydi. Fors ko'rfazi – mana shu ko'rfazning asosiy nomidir”¹⁸.

Hattoki, Ahamoniylar sulolasi vakili qadimiy Eron hukmdori Doro o'z memuarlarida bu joy haqida “Fors dengizi” deb eslab o'tsada, undan ham oldin eroniy bo'lmagan xalqlar tomonida bu suv yo'llari “fors” deb atalgan¹⁹.

¹⁶ Медведко Л.И. Ветры перемен в Персидском заливе. М., 1982. С.36

¹⁷ Санталов А. А. Империалистическая борьба за источники сырья. М., 1954. С.56

¹⁸ Санталов А. А. Империалистическая борьба за источники сырья. М., 1954. С.46

¹⁹ Медведко Л.И. Ветры перемен в Персидском заливе. М., 1982. С. 89

1.2. Bo'lingan dunyoni qayta bo'lish uchun kurashning boshlanishi. Fors ko'rfazining neftiga bo'lgan qiziqishning ortib borishi.

XVIII asr oxirlaridan boshlab va ayniqsa XIX asr mobaynida dunyoning ko'plab mintaqalarida yevropaliklarning tartiblari o'rnatila boshlangan. Buning asosiy harakatlantiruvchi kuchi esa bir necha asr avval Yevropada boshlangan ilm va fanga e'tiborning ortishi, texnika va qurol yarog'larning yangi turlarining yaratilishi, geografik kashfiyotlar natijasida avval ma'lum bo'lmagan yangi yerlarning ma'lum bo'lib qolishi kabi sabablarni keltirib o'tishimiz mumkin.

XIX asr davomida Angliya va Fransiyaning qit'adagi ustunligi va birinchilik uchun raqobati yangi mustamlakalarni egallash, yanada katta xom ashyo manbalariga ega bo'lish bilan birga o'zlarining tobora ortib borayotgan sanoat ishlab chiqarish sohalardagi mahsulotlarni sotish uchun yangi bozorlarga ega bo'lish uchun ham harakat qila boshlagandi²⁰.

Undan avvalroq Portugaliya va Ispaniya davlatlari eng katta mustamlakalarga ega bo'lganliklari holda, XIX asrning o'rtalari va oxirlariga kelganda asosiy mulklaridan mahrum bo'lishdi. Ularning sobiq mustamlakalari garchi boshqa davlatlar Angliya va Fransiya tomonidan egallanmagan bo'lsada, ammo ularda o'zlarining iqtisodiy mavqeyini kuchaytirishga va mustaqil bo'lgan, mustamlakaga aylantirishning imkoni bo'lmagan davlatlar, xususan Lotin Amerikasi davlatlarini iqtisodiy qaram qilishga urina boshlashdi²¹.

Boshqa tomondan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida dunyodagi siyosiy va iqtisodiy holat butunlay o'zgarib ketadi. Sababi mustamlakalar va iqtisodiy raqobat sharoitida o'zgarishlar yuz bera boshladi. Avvalo 1861-1865- yillardagi fuqorolar urushidan keyin yangi tartiblar o'rnatilgan AQSh da iqtisodiy o'sish juda tezlashib ketadi. Qishloq xo'jaligi bilan birga sanoat tez o'sa boshladi. 1884 -yilda AQSh dunyoning birinchi sanoat davlatiga aylandi²².

²⁰ Туполев Б. М Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С. 32

²¹ Туполев Б. М Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.33

²² Туманович Н.Н. Европейские державы в Персидском заливе в XVI-XIX вв. М., 1982. С. 45

Garchi mustamlakalarni egallash borasida Yevropaning Angliya va Fransiya davlatlari bilan raqobat qila olmasada, ammo ularning yangi bozorlarini egallashlariga to'sqinlik qila olardi. Ayniqsa XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida bir qancha yangi yerlarning egallanishi (Kuba, Gavay orollari, Filippin orollari va boshqalar) mavjud vaziyatni butunlay o'zgartirib yubordi²³.

Boshqa tomondan 1871- yilda birlashtirilib, imperiya sifatida Yevropada o'zining mavqeiga ega bo'lgan Germaniya ham Angliya va Fransiya uchun yangi raqib sifatida paydo bo'ldi. Germaniyaning o'sib borayotgan iqtisodi uchun yangi xom ashyo manbalari va mahsulotlarini sotish uchun yangi bozorlar talab qilinardi. Qo'shimcha ravishda Germaniyaning hukmron doiralari yangi mustamlakalar "Quyosh ostidan yangi yerlar" talab qila boshladi. Bunday yerlar asosan Afrika va Yaqin Sharqdan talab qilinishi Angliya va Fransiya hukmron doiralarini tashvishga solib qo'yadi²⁴.

Imperator Vilgelm II ning keng miqyosidagi mustamlakalar uchun kurashi natijasida Yevropadagi vaziyat butunlay o'zgarib ketadi. 1888 -yilda taxtga o'tirishi bilan Afrikadan yangi yerlarni egallashga uning o'zi homiylik qila boshlaydi. Bu borada uning Falastinga, Marokashga va boshqa yerlarga amalga oshirgan sayohatlari yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Natijada ikki marta Marokash inqirozlari yuz berdi. Yaqin Sharqda esa Bag'dod temiryo'li masalasidagi inqirozli voqyealar yuz bergandi²⁵.

Uzoq Sharqda Yaponiya Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib burjua inqilobini amalga oshirdi va taraqqiyotning yangi shaklini tanlashi natijasida tezlik bilan rivojlanib, yangi korxonalar quriladi va ularni hukumatning o'zi qurishga homiylik qilib, keyin yangi qurilgan korxonalarni Yaponiyadagi sanoatchilarga arzon narxda sotishardi. Shu tariqa Uzoq Sharqda Yevropa davlatlariga yangi

²³ Бондаревский Г.Л. Борьба империалистов за господство над Персидским заливом на рубеже XIX и XX вв. Ташкент, 1955. С.25

²⁴ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С.23

²⁵ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 29

raqobatchi paydo bo'ldi. Ayniqsa 1894-1895- yillardagi Xitoy bilan va 1904-1905- yillardagi Rossiya bilan urushlardagi g'alabalari natijasida Yaponiya tashqi dunyoda buyuk davlatlar sifatida ko'rsatila boshladi. Natijada boshqa davlatlarning Uzoq Sharq masalasiga aralashuvi cheklanib qoladi. Bu esa yangi mustamlakar borasida yangi bir davlatning paydo bo'lganligidan dalolat berardi²⁶.

1861- yilda birlashib, 1871- yilda Rimni ham birlashtirib, yagona Italiyaning paydo bo'lishi, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq va ularga yaqin hududlarda yangi kuchli davlatning vujudga kelganligini bildirardi. Garchi iqtisodiy jihatdan Italiya Yevropa va dunyoda biroz ortda qolayotgan bo'lsada, ammo uning Yevropadagi to'rtinchi qudratli davlat ekanligi va Shimoliy Afrikaga geografik jihatdan yaqinligi yuqorida ko'rsatganimiz xavfni yanada orttiradi²⁷.

Shu sababli yuqorida barcha davlatlar yangi asr boshlarida mustamlakalar borasida kurashda ishtirok etishni boshlab yuborishadi. Bunda biror davlatning yakka o'zi g'olib chiqishi qiyin bo'lganligi ularning ittifoqlarga birlashishini tezlashtiridi.

Dastlab Germaniya o'zining mavqeyini kuchaytirish va Fransiyaning Yevropaning ikkinchi darajali davlati darajasiga tushirish uchun 1879- yilda Avstriya-Vengriya bilan va 1883 -yilda Italiya bilan bir ittifoqqa birlashib "Uchlar ittifoqi" tashkilotini tashkil qilgan bo'lsa, Angliya tomoni Germaniya va uning ittifoqchilariga qarshi kurashish orqali o'zining mustamlakalarini saqlab qolish maqsadida dastlab o'zining asriy dushmani bo'lgan Fransiya bilan „Antanta“ ittifoqiga birlashadi. Unda Afrikadagi manfaat doiralarini bo'lish uchun kelishib olishadi. 1907- yilda esa Rossiyaning ittifoqqa qo'shilishi natijasida vaziyat yanada o'zgaradi²⁸.

²⁶ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С. 23

²⁷ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955.с. 65

²⁸ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С.66

Yaqin Sharqqa bo'lgan qiziqishning ortishiga bir necha omillarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Birinchidan: mazkur hududlar bir necha asr davomida Usmoniylar Turkiyasi nazorati ostida bo'lib, ularning ko'rib o'tilayotgan davrda ozodlikka erishishi yo'lidagi harakatlari boshlanib ketadi. O'z navbatida usmoniylar yevropaliklardan barcha sohalarda ortda qolib, asta-sekin o'zlarining mulklaridan ajrala boshlagandi²⁹.

Shimoliy Afrikadagi usmoniylarga tegishli hududlar Angliya va Fransiya tomonidan egallab olingan bo'lsa, Kavkazorti yerlari va Qora dengiz bo'yari Rossiyaga o'tib ketadi. Iqtisodiy qoloqlik natijasida Yevropa davlatlaridan olingan katta miqdordagi qarzlar esa imperiyaning ahvolini yanada yomonlashtirdi. Shu sababli Yevropa davlatlari Yaqin Sharqdagi usmoniylar mulklariga ham ko'z olaytira boshlagandi³⁰.

Ikkinchidan: fors ko'rfazining bir necha asr davomida faqatgina savdo yo'li sifatidagi ahamiyati ortib borib, uning o'rnini XX asrda asosiy kurash va raqobat masalasi bo'ladigan neftga boyligi natijasida qudratli davlatlarning mintaqaga bo'lgan qiziqishi yanada ortib ketadi. Germaniyada dizel bilan harakatlanuvchi yangi avtomobillarning yaratilishi, ulkan okean kemalarining qurila boshlashi va ularning ham yoqilg'iga bo'lgan talabining ortib borishi kabi sabablar tufayli tezlik bilan neftga bo'lgan talab ortib ketadi³¹.

Uchinchidan: yangi mustamlakalarning egallay boshlashi ularga olib boradigan yo'llarning xavfsizligi va yo'llarni nazorat ostiga olinishi bilan bog'liq muammolar yuzaga keltirildi. Sababi Suvaysh kanalining qurilishi natijasida Hindiston, Xitoy va umuman boshqa sharq mamlakatlariga borish uchun Afrika qit'asini aylanib o'tish shart bo'lmay qoldi. Bu ulkan mablag'larni tejash, vaqtni yo'qotmaslik va shu kabi boshqa imkoniyatlarni yaratib berdi. Bu esa Yaqin

²⁹ Аветян А.С. Германский империализм на Ближнем Востоке. - М., 1966. С. 33

³⁰ Аветян А.С. Германский империализм на Ближнем Востоке. - М., 1966. С.35

³¹ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С.36

Sharqda o'z tasirini oshirishga harakat qiladigan davlatlarning sonini oshirib yubordi. Bu esa mintaqa uchun kurashni yanada faollashtirardi³².

Germaniyaning imperialistik doiralari imperator Vilgelm II boshchiligida Usmoniylar imperiyasi bilan yaqinlasha boshlaydi va uning asosiy sababi sifatida Yaqin Sharq va Fors ko'rfazidagi mavqeyini oshirishdan iborat bo'lgan. Iso payg'ambarning qabrini ziyorat qilish maqsadida Falastinga kelgan imperator o'z ziyorati chog'ida turk sultoni bilan ham uchrashadi³³.

XIX asrning 80-yillarida nemis sanoatchisi Simens tomonidan taklif qilingan yangi temir yo'l tarmog'ini qurishli bilan bog'liq reja, uning yo'nalishi Bag'dod tomon borishi va boshqalar imperatorda ham qiziqish uyg'otganligi bejiz emas. Sababi agarda mazkur reja amalga oshib, temiryo'l tarmog'i ishga tushirilishi boshlansa, Germaniyaning iqtisodiy, siyosiy va harbiy imkoniyatlari juda ortib ketardi³⁴.

Boy neft konlari, Hindiston va Xitoyga boradigan savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatish imkoniyati, Eron, O'rta Osiyo va shu bilan birga Angliyaning eng boy mustamlakasi bo'lgan Hindistonga juda yaqin qoladi. Aynan shu jihatlar Angliya, Fransiya va Rossiyani tashvishga solib qo'yadi va ularning bir necha bor faqat shu temiryo'lning qurilishi bilan bog'liq xalqaro konferensiyalar chaqirishiga sabab bo'ladi³⁵.

Birinchi jahon urushi arafasida mazkur masalaga biroz oydinlik kiritilib, temiryo'lning qurilishi xalqaro loyihaga aylanib qolgan bo'lsada, ammo Turkiyadagi vaziyatning o'zgarishi, birinchi jahon urushi va boshqalar mazkur yo'lning qurilishini hatto ikkinchi jahon urushiga qadar ortga surib yuborgandi.

³² Аветян А.С. Германский империализм на Ближнем Востоке. - М., 1966. С. 64

³³ Ерусалимский А. С., Внешняя политика и дипломатия германского империализма в конце XIX в., 2 изд., М., 1951. С. 23

³⁴ Лазарев М.С. Крушение турецкого господства. М., 1989. С.56

³⁵ Лазарев М.С. Крушение турецкого господства. М., 1989. С. 95

II-bob. Angliya va Germaniyaning Fors ko'rfazi hududiga kirib kelishi va ziddiyatlar.

2.1. Angliyaning Fors ko'rfazidagi maqsadlari.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlariga kelib dunyodagi siyosiy va boshqa jarayonlar butunlay o'zgarib ketadi. Dunyodagi "egasiz hududlar" masalasidagi tortishuvlar tinch yo'l bilan yoki o'zaro kelishuvlar bilan emas, balki kuch ishlatish va urush yordamida hal qilinishi ko'proq ma'lum bo'la boshlagandi.

Germaniya va uning ittifoqchilari ko'proq kuch ishlatishni maqul ko'ra boshlashadi. Yevropa davlatlari mustamlakachilik borasida o'zlarining diqqatlarini asosan Afrika, Osiyoga qaratishgandi. Agarda Afrika masalasi avvalroq hal qilina boshlagan va Yevropa davlatlarining barchasi undan o'zlarining ulushlarini deyarli olgan bo'lsalar Osiyo masalasida vaziyat butunlay boshqacha edi³⁶.

XIX asrning ikkinchi yarmi va aniqrog'i 70-yillariga kelib juda yirik geografik hududlardagi mustamlakalar masalasida aniq bir yo'nalishlar belgilab olingandi. Misol uchun Hindiston va Seylon oroli Buyuk Britaniya tomonidan to'liq mustamlakaga aylantirib bo'lingan bo'lsa, Sharqiy Hindiston (bugungi kunda Indoneziya) Gollandiya tomonidan egallab olingandi, Filippin orollari Ispaniyaga tegishli bo'lsa, 1898- yildagi Ispaniya-Amerika urushi natijasida AQSh nazorati ostiga o'tadi. Janubiy Vetnam keyinchalik butun Vetnam va Kambodja Fransiya tomonidan egallab olina boshlagandi³⁷.

O'rta Osiyo masalasida Rossiya va Buyuk Britaniya kelishmovchiligi mavjud bo'lsada, ammo Rossiya imperiyasining hududga kirib kelishi juda faollashib, xonliklarni birin-ketin o'ziga bo'ysindirib bormoqda edi.

Mavzuning asosiy mazmuni bo'lgan Yaqin Sharq mamlakatlaridan eng yiriklari bugungi kundagi Saudiya Arabistoni yerlari uzoq yillar usmoniy turklar nazorati ostida bo'lib kelgan, ammo XIX asrda juda zaiflashib qolgan Turkiya

³⁶ Бондаревский Г.Л. Борьба империалистов за господство над Персидским заливом на рубеже XIX и XX вв. Ташкент, 1955.с. 120

³⁷ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С. 100

mazkur hududlarni nomigagina nazorat qilardi va uning boshqaruvi, boyliklari va boshqalari Buyuk Britaniyaga o'ta boshlangandi. Shu bilan birga Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya hukmron doiralari bir necha marta ilmiy ekspeditsiyalarni yuborib, ular mazkur hududlar xalqlari "neft dengizining ustida suzib yurishganini" ta'kidlab gazetalar va boshqa joylarda maqolalar nashrini olib borishgan³⁸.

Arabiston yarim orolini Buyuk Britaniya tomoni dastlab butunlay egallash va uni boshqarish fikridan yiroq edi va faqatgina Qizil dengiz va uning Fors ko'rfaziga chiqish yerlarini o'z nazorati ostiga olishni rejalashtirgandi. Ammo keyinroq mazkur hududlarning neftga boyligi aniqlanib, uning mavqeyi ortib borishi natijasida Arabiston yarim oroli barcha sanoatchilarning diqqat markaziga kira boshladi³⁹.

XVIII – XIX asrlarda Buyuk Britaniya Hindistonga borish yo'llarini xavfsizligini taminlash maqsadida bir necha marta Fors ko'rfazi shohlari bilan shartnomalar imzolaydi. Bundan ko'zlangan maqsad mazkur yerda o'ziga tayanch manzilgohlar va qal'alarni qurishdan iborat edi. Birinchi o'rinda britaniyaliklar Eron va Ummonni nazoratlariga olish uchun harakatni boshlab yuborishadi⁴⁰.

Ammo ularga qarshi harbiy kuch ishlatish fikridan yiroq edilar. Ayniqsa Ummon shayxlariga qarshi. Britaniyaliklar mazkur hududlarga kirib kelish uchun dengiz qaroqchiligiga qarshi kurash va qul savdosini taqiqlash kabi shiorlar bilan chiqishadi. Sababi britaniyaliklarga qarshi chiqishlar bo'lishi tabiiy edi va o'zlariga qarshi shayxlarning harbiy qarshiligini yo'q qilish uchun shunday yo'l tanlandi⁴¹.

Bu siyosat sihil yaqinida joylashgan Ummon, Qatar, Bahrayn va Quvayt kabi davlatlar uchun qo'llanildi. XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlarida britaniyaliklar bir necha shayxliklarni birlashtirib o'zlarining koloniyalariga asos sola boshlashadi. 1798, 1820, 1843, 1853, 1861, 1862 - yillardagi shartnomalar

³⁸ Бодянский В.Л. Бахрейн.(К истории стран Персидского залива). М., 1962. С. 25

³⁹ Васильев А.М. История Саудовской Аравии (1745 - конец XX в.) М., 1999 с.36

⁴⁰ Галеви Э. История Англии в эпоху империализма. М., 1937. Т.1. с. 58

⁴¹ Гальперин А.И. Англо-русский союз. М., 1947. С.15

natijasida Fors ko'rfazining janubiy qismi amalda Britaniya nazorati ostiga o'tib ketdi⁴².

Buyuk Britaniyaning navbatdagi nishoni Baxrayn arxipelagi bo'lib, uning shayxi 1880- yilda «Birinchi kelishuv» nomli shartnomani imzolaydi. Shundan keyin ham 1881, 1888, 1889- yillarda ham shu kabi yangi shartnomalarni imzolaydi. Qatarda turklarga qarshi harakatlar kuchayib borishi inglizlarga qo'l keladi va Qatardagi turk harbiy qismlari bir necha mag'lubiyatlardan keyin mazkur hududlardan chiqib keta boshlaydi⁴³.

Buyuk Britaniya bu yerga birinchilardan bo'lib kirib kelgan edi. 1820-yillardayoq inglizlar sharqiy arab amirliklarini bo'lib o'tgan urushda (1808-1819) mag'lub qilib, mazkur hududlarda o'zining hukmronligini o'rnatgan edi. 1839-yilda ular Adanni egallab olishadi. Bu esa Angliyaga Arabiston dengizidan Qizil dengizga o'tish qismini nazorat qilish imkonini beradi. Shu tariqa XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar ham Buyuk Britaniya hukumati Arabistonda o'zining mavqeyini mustahkamlash uchun harakatni to'xtatmadi. Endi inglizlarning diqqat etibori Arabistonning janubiy va sharqiy qismlarini egallash bo'lib qoladi⁴⁴.

XIX asrning ikkinchi yarmi va oxirlariga kelib Buyuk Britaniya Janubiy Arabistonda janubiy Yaman sultonliklarini egallab oladi va ular bugungi kundagi Laxaj, Qati, Katar va boshqalardir. Mazkur hududlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak butun hadramaut yerlari inglizlar qo'l ostiga o'tib qoladi.

1891- yil 19-martda imzolangan Ingliz-Maskat tinchlik shartnomasiga ko'ra Buyuk Britaniya bugungi Ummon davlati ustidan nazorat o'rnatdi. 1880- yildagi va 1892- yildagi shartnomalarga muvofiq bugungi Baxrayn, 1882- yildagi shartnomaga muvofiq Qatar inglizlar nazoratiga o'tadi. 1892- yilda imzolangan shartnoma bugungi Birlashgan Arab Amirliklari o'rnidagi yetti amirlik bilan imzolanib, mazkur hududlar ham Buyuk Britaniya nazoratiga o'tadi. Quvayt bilan

⁴² Денни Л. Борьба за нефтяную монополию. М., 1934. С.9

⁴³ Колониальный Восток. Социально-экономические очерки. М., 1924. С. 129

⁴⁴ Луцкий В.Б. Арабские страны. М., 1947. С. 5

yuqorida ko'rsatilganidan keyin ham bir necha marta shartnomalar imzolanib, ular 1899, 1900 va 1904- yillarda imzolanadi⁴⁵.

Qatar shayxlari aslida XVIII o'rtalarida turklardan ozod bo'lgan edilar. Ammo keyingi asrda ham Turkiya Qatardan chiqib ketishni istamasdi. Keyingi voqyealar rivoji shuni ko'rsatdiki, bir necha marta imzolangan shartnomadan keyin 1916- yilda imzolangan ingliz-qatar shartnomasi natijasida Qatar o'zining mustaqilligidan amalda butunlay ajraldi⁴⁶.

1913- yilning 29- iyulida Buyuk Britaniya va Turkiya o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra Sharqiy Arab amirliklari usmoniylar tasiridan ozod va ular mustaqil deb tan olindi. Shu bilan birga shartnomada Ummon va Quvaytni Buyuk Britaniya ham mustaqil deb tan olgan bo'lsada, ammo ular rasman inglizlar nazorati ostida qolib ketishgandi. Baxrayn va Qatarda Angliya protektoratining o'rnatilishi 1914- yil noyabrda Turkiyaning Germaniya bilan Antanta davlatlariga qarshi birinchi jahon urushiga kirishiga sabab bo'lgandi. Turkiyaning urushga kirishi Quvayt ustidan Buyuk Britaniya protektoratining e'lon qilinishiga ham sabab bo'lgan⁴⁷.

1899- yildagi Ingliz-Quvayt shartnomasiga binoan Quvayt amalda Britaniya protektorati ostiga o'tib qoladi. Germaniyaning Bag'dod temir yo'lining qurish rejasining boshlanishi natijasida britaniyaliklar va ularning hududdagi rejalari xavf ostida qolib keta boshladi. Britaniya ma'muriyati Quvayt masalasida o'ta maxfiy ravishda ishlarni olib borib, unga Fransiya va Rossiyani ham jalb qilib, Germaniyaning hududdagi tasirini yo'qqa chiqarish uchun harakatlarni boshlab yuboradi⁴⁸.

⁴⁵ Луцкий В.Б. Арабские страны. М., 1947. С. 55

⁴⁶ Галеви Э. История Англии в эпоху империализма. М., 1937. Т.1. с. 98

⁴⁷ Галеви Э. История Англии в эпоху империализма. М., 1937. Т.1. с. 99

⁴⁸ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С.102

1904 va 1907- yillarda Buyuk Britaniya hukumati Fransiya va Rossiya bilan kelishuvga erishishi natijasida Yaqin Sharq va Fors ko'rfazida o'zining mavqeini oshirib oldi. 1914- yilda esa Qatar ham Britaniya protektorati ostiga o'tdi⁴⁹.

Germaniya va uning ittifoqchilar asosiy etiborlarini Bag'dod temir yo'li va uning qurilishiga qarata boshlashadi. Sababi shu yo'l bilan Buyuk Britaniya va uning sheriklarini katta imkoniyatlardan mahrum qilishi mumkin edi. Shu bilan birga savdo yo'llaridagi nazorat ham nemislar qo'lga o'tishi mumkin bo'lardi. Ikki daryo oralig'ida Germaniya tasirining ortib borishi Mesopatamiyaga kirib borishning nemischa ko'rinishi inglizlarni tashvishini ortishiga sabab bo'ladi⁵⁰.

Usmoniylar imperiyasi esa Bag'dod temir yo'lini qo'llab-quvvatlash uchun imperiyada temiryo'llar tarmog'ini rivojlantirish dasturini bahona qilib ko'rsatishdan boshqa yo'l topa olmaydi. Sababi bir tomondan sulton Britaniya va Fransiya bilan juda katta miqdorda qarz va ular imperiyaning Shimoliy Afrikadagi mulklarini sulton bilan kelishmay egallab olgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Yevropada tobora kuchayib borayotgan Germaniya Turkiyaga yordam berishi, uning yo'qotgan yerlarining bir qismini bo'lsada qaytarib olishga imkon yaratishi va iqtisodiy holatini yaxshilab olishi uchun yaxshi imkoniyat edi⁵¹.

Ammo Germaniya diplomatiyasi o'ziga qarshi Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya kabi qudratli davlatlarning birgalikdagi bosimiga qarshi tura olmasdi. Baribir Germaniya tomoni Bag'dod temir yo'li masalasida juda katta iqtisodiy, harbiy va diplomatik imkoniyatlarni qo'lga kiritdi. Bag'dod shahrining tanlanishi o'z-o'zidan Quvaytni ham xavf ostida qoldirardi. To'g'ri temir yo'l qurilishi ko'plab qarshiliklar siyosiy ziddiyatlar olib borilgan bo'lsada, nemislar yo'lning Berlindan Mosulgacha bo'lgan yo'lning yarmigacha bo'lgan qismini qurib

⁴⁹ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С.103

⁵⁰ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С. 105

⁵¹ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С. 109

bitirishadi. Birinchi jahon urushining boshlanib ketishi yo'lining keyingi taqdiriga o'zining salbiy tasiri o'tkazadi⁵².

Buyuk Britaniya ham yo'lining qurilishida ishtirok etib, uning Bag'dod-Basra qismini qurib ishga tushiradi. Bu esa Germaniyaning Yaqin Sharq masalasidaga mag'lubiyatini bildirardi. XIX asrning oxirgi choragi va XX asrning boshlarida Buyuk Britaniya hukmron doiralari to'liq g'alaba qozonishadi. Sababi Angliya tomoni Germaniyadan farqli ravishda o'zining ittifoqchilaridan keng miqiyosda foydalandi. Hududdagi har bir shayxni nazorat ostiga olib, uning huzurida albatta inglizlarning bir vakili bo'lishini taminlashadi⁵³.

Bu esa bir tomondan shayxlarni nazorat qilsa, ikkinchi tomondan ularda Buyuk Britaniyaga ishonchlarini oshirishga xizmat qiladi. Ingliz maslahatchilarining faoliyati natijasida Yaqin Sharq va Fors ko'rfazida Buyuk Britaniya birinchi jahon urushi arafasida va urush yillarida o'zining to'liq ustunligini taminlashga erishib, mazkur hududlardan asosiy raqibi Germaniya va hatto ittifoqchilari bo'lgan Fransiya va Rossiyaning tasirlarini ham yo'qqa chiqaradi⁵⁴.

XX asr boshlarida amirliklar katta ichki muammolarga uchray boshlaydi. Sababi amirliklarning turklarga olib borgan mustaqillik urushlari asta-sekin o'zaro ichki urushlar, separatistik harakatlar va boshqalar bilan aralashib ketadi. Bu vaziyatda britaniyaliklar shayxlarni o'zlarining nazoratlariga olishlari juda oson hal bo'lardi. Bunda bir shayx qurol bilan taminlanib, evaziga qolgan bir necha shayxlar inglizlarga bo'ysindirilgan.

Shu bilan birga birinchi jahon urushi arafasi va urush yillarida Buyuk Britaniya Yaqin Sharqda o'zining hukmronligini o'rnatgan bo'lsa, urush yillari boshlangan AQSh bilan raqobat urushdan keyingi yillarda juda kuchayib ketadi. Sababi urush natijasida zaiflashib qolgan Angliya urush natijasida dunyoning

⁵² Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С. 111

⁵³ Колониальный Восток. Социально-экономические очерки. М., 1924. С. 28

⁵⁴ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. с. 125

birinchi davlati maqomini yanada mustahkamlab olgan AQSh bilan raqobat qila olmay qolgandi. Buyuk Britaniya hukumati 150 yil davomida Hindistonga boradigan savdo yo'lini juda yaxshi himoya qilib keladi. Ammo AQSh tasiridan Yaqin Sharqdagi manfaat doiralarini himoya qila olmaydi. Sababi AQSh ning iqtisodiy qudrati ortib ketib, Britaniya u bilan raqobatlasha olmasdi.

Yaqin Sharqda Buyuk Britaniya Germaniyani siqib chiqarib, o'zining asosiy raqobatchisidan xalos bo'lgandek bir sharoitda AQSh bu yerda vujudga kelishi kutilayotgan o'ziga xos "Britaniya neft ko'li" ni egallab oladi.

Arabiston yarim oroli bilan birga Fors ko'rfazi hududi va bugungi Eronning janubiy va g'arbiy yerlariga inglizlarning kirib kelishi ko'rib o'tilayotgan davrda faollashib boradi. Ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmi va oxirgi choragida mazkur hududlarda Rossiya va Angliya raqobati kuchayib ketdi. Ammo 1907- yil 31-avgustda imzolangan Rossiya-Angliya shartnomasiga binoan Angliya Eronning bugungi Janubiy-Sharqiy qismi (Siston, Xurmuzgon, Kermon va Xurosonning janubiy-sharqiy qismlari) va Rossiya Shimoliy qismini (Ozarbayjon, Kurdiston, Zinjon, G'ilon, Kermonshoh, Hamadon, Mozandaron, Isfaxon va Xurosonning bir qismi) o'zlarining tasir doiralariga olishdi⁵⁵.

Bugungi kunda mazkur mintaqa mamlakatlari garchi to'liq mustaqil davlatlar hisoblanib, ularning boshqaruvi va iqtisodiyoti to'liq o'zlarining qo'llarida bo'lsada, ammo uzoq davr mobaynida AQSh tasirida qolib ketishdi. Ularning eng asosiy quroli bu demokratiyani xorijga eksport qilish shiori bilan ko'plab arab davlatlarini o'z tasiri ostiga olib turgandi.

⁵⁵ Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968. С. 142

2.2. XIX asr oxirida Germaniyaning imperialistik rejalari va unda Usmoniylar imperiyasining o'rni.

XIX asr oxirgi choragiga xos bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar Germaniyaning siyosiy va harbiy ekspansiyasiga sabab bo'ldi. Germaniyaning birlashtirilishi uning kapitalistik o'sishiga turtki berdi.

Germaniyaning milliy birlashtirilishi mamlakatdagi kapitalizmning keyingi rivojlanishi uchun sharoit hozirladi. Shu bilan birgalikda, Prussiya monarxiyasi tomonidan amalga oshirilgan birlashtirilish Yevropa xalqlari uchun xavfli va inqilobiy ahamiyatga ega edi. Germaniyaning g'alabasi uning harbiy kuchlarini tashqi va ichki siyosatining asosiy quroliga aylantirdi. Boshqaruv doira vakillari Germaniyaning dunyoviy hukmronligini taminlashga intishni o'zlariga bosh maqsad qilib qo'ydilar⁵⁶.

1878-yilgi Berlin Kongressi “Sharq masalasi” ga yangi faol ishtirokchi - Germaniya imperiyasi qo'shilganligini ko'rsatib o'tdi. Kayzer Vilgelm II hukmronligi davrida siyosiy hayot “Drang nach Osten” - Sharqqa hujum nomini oldi. Germaniya imperiyasining sharqdagi rejalari Rossiya imperiyasini bo'lish va Boltiqbo'yi, Ukraina va Kavkaz hududlarida o'z hukmronligini o'rnatishdan iborat edi⁵⁷.

German ekspansiyasi bosqinchilik harakatlarida o'zaro bellashayotgan imperialistik davlatlarning siyosiy va strategik manfaatlari kesishayotgan - Yaqin Sharq asosiy o'rinni egalladi.

German ekspansiyasining tashkilotchilari fikriga ko'ra, bu hududlarda Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy mavqeyini oshirish, imperiyaning Fors ko'rfaziga chiqishini va Hindistonga ta'sir ko'rsatish uchun sharoit yaratishni ta'minlashi kerak edi. Bunda, Germaniya asosiy e'tiborini qaratgan mamlakat Turkiya bo'ldi⁵⁸.

⁵⁶ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С. 39

⁵⁷ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.41

⁵⁸ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.45

1913-yilning dekabrda Vilgelm II yaqindagina turk armiyasi korpusining birinchi boshlig'i lavozimiga tayinlangan, Usmonlilar imperiyasi oliy harbiy kengashi a'zosiga aylangan va Turkiyaga yuborilgan german harbiy missiyasi rahbari, general Liman fon Sandersni qabul qildi⁵⁹.

Kayzer generalga Germaniyaning Yaqin Sharqdagi siyosati va sultonlik Turkiyasi bilan kelajakdagi aloqalar haqida gapirdi. Kayzerning fikriga ko'ra, bu aloqalar Germaniya imperiyasining Sulton hududlaridagi iqtisodiy va siyosiy hukmronligining davomiyligini taminlashi kerak edi. "German bayrog'i yaqinda Bosfor qal'asi ustida hilpiraydi yoki meni Muqaddas Yelena oroliga surgun qilinganlarning qismati kutmoqda" degan Kayzer fon Sandersga.

Bu fikrning davomi sifatida kayzer keyinroq shunday yozgan edi: "Men Mesopatamiyani, Aleksandretni va Messinani egallayman! Aqlli turklar esa bu qismatini sabr bilan kutadilar".

Birinchi jahon urushi oldidan, o'zini yaqindagina "barcha musulmonlarning do'sti" deb e'lon qilgan kayzer bo'lg'usi ittifoqchisi taqdirini shunday muhokama qilgan edi. Bu Turkiya Germaniyaga o'zining imperialistik rejalarini amalga oshirishi uchungina kerakligini yana bir bor isbotladi. Turkiya sultonligi hukmron doira vakillari orasida Germaniya siyosatiga shubha bilan qarovchilar ham bo'lib, ular Yevropa davlatlari ikki guruhi o'rtasidagi kelishmovchiliklarda betaraflikni saqlab turishni yoqlab chiqdilar⁶⁰.

Bu orada Turkiya hokimiyatida anchagina muhim o'rini egallagan yosh turklar guruhleri Germaniyaning agressiv rejalaridan foydalanib o'zlarining panturk va panislomist g'oyalarini amalga oshirishni ko'zladi va Markaziy davlatlarga qo'shilishni qo'llab quvvatlay boshladilar. Ular Germaniyaning bosqinchilik ittifoqiga qo'shilishga harakat qila boshladilar.

Bu guruh 1911-yildan boshlab Germaniya bilan ittifoq tuzishga zamin hozirlayotgan edi. Pangermancha qarashlar ayniqsa, Bolqon urushlaridan keyin Turkiyaga xalqaro yakkalanib qolish xavfi tug'ilgandan so'ng faollasha boshladi.

⁵⁹ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.46

⁶⁰ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.51

Lekin, Berlin hatto muzokaralar o'tkazishga ham rozilik bildirmadi. Bunda, Germaniya diplomatiyasi ittifoq tuzishga shoshilmasdan Rossiyaning Usmonlilarning sharqdagi holatini kuzatdi⁶¹.

Turkiyaning qurolli kuchlarida nazorat o'rnatgan va hokimiyatdagilar qo'llab quvvatlashga erishgan Germaniya, Turkiya bilan xohlagan vaqtida ittifoqni rasmiylashtirishga ishongan holda, Turkiyaga nisbatan ittifoqchilik majburiyatlarini qabul qilishga shoshilmadi⁶².

Bunda nemislar birinchidan, Yevropa hukmdorlari bilan ayniqsa, Rossiya bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikka harakat qildi. Rus diplomatiyasi Usmonlilar imperiyasi hukmdorlarining ruslarga qarshi kayfiyatini anglagan holda, Istambuldagi voqealarni diqqat bilan kuzatardi⁶³.

Ikkinchidan, shunisi aniq ediki, Turkiyaning harbiy - iqtisodiy o'sishi katta harajatni talab etar edi. Buni faqatgina tashqi zayomlar orqali to'ldirishi mumkin edi. Turkiya betaraflikni saqlab turadigan bo'lsa, u zayomlarni Antanta davlatlaridan ham olishi mumkin edi. Bu esa bir tomondan Germaniyani anchagina zaif ittifoqchisini urushga tayyorlash tashvishidan xalos etar edi⁶⁴.

1914-yil 28-iyunda Sarayevo shahrida serb terroristik jamiyati tomonidan Avstriya taxt vorisi Frans Ferdinantning o'ldirilishidan so'ng, urush bo'lishiga hech qanday shubha qolmadi va bu Germaniya hukmdorlarining Turkklar bilan ittifoqchilik tuzish haqidagi qarashlarini keskin o'zgartirdi⁶⁵.

1914-yil iyunda Germaniya tashqi ishlar vaziri Istambulga elchi Vengeymni jo'natib, Germaniya ittifoqchilik shartnomasini tuzish uchun muzokaralar olib borishga tayyor ekanligini bildiradi. Turkiyada allaqachon shartnoma loyihasi

⁶¹ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.55

⁶² Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С.40

⁶³ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 41

⁶⁴ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.61

⁶⁵ Туполев Б. М. Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С.66

tayyor edi va u tezda Germaniyani shartnoma bilan tanishtirdi. Turkiya loyihasi Rossiyaga qarshi uzoq muddatli bosqinchilik ittifoqidan va yana urush davrida Turkiya armiyasining 1\4 qismiga Germaniya boshchilik qilish huquqiga egaligidan iborat edi⁶⁶.

Lekin Turkiya loyihasi Germaniyani qoniqtirmadi va 1914-yil 2-avgustda ya'ni kayzer Germaniyasi Rossiyaga urush e'lon qilgandan bir kun keyin Germaniya ishlab chiqqan loyiha asosida turk- nemis ittifoqi sirli shartnomasi imzolandi.

Shartnoma 1918-yilgacha amal qilishi va faqatgina Rossiya Turkiyaga hujum qilgan taqdirdagi Germaniyaning unga yordam qilishi ko'rsatilgan edi. Boshqa davlatlar yani Rossiyaning ittifoqchilari Turkiyaga hujum qilgan taqdirda Germaniya Turkiya tomondan kurashishga majbur emasligi belgilandi. Shartnomaga ko'ra Turkiya armiyasiga rahbarlik qilish amalda german missiyasi qo'liga o'tdi. Bu ham Germaniya foydasiga tuzilgan tengsiz shartnomalardan biri edi⁶⁷.

Yosh turklar yetakchilari iltimoslari va Turkiyaning urushga tayyor emasligidan kelib chiqqan holda, Germaniya Turkiyaga harbiy tayyorgarlik ko'rib bo'lgandan so'ng urushga kirishiga rozilik bildirdi. Kelishuvga ko'ra turklar tezda harbiy tayyorgarlikni boshlab yubordilar. Vaqtdan yutish uchun Turkiya betaraflikni saqlashini e'lon qildi. Shu bilan birgalikda Turkiya diplomatiyasi Rossiya bilan muzokaralar olib borishga ham harakat qilib ko'rdi.

Kayzerning buyrug'iga binoan Germaniya genaral shtabida dushmanning orqa tomonida faoliyat olib boruvchi bo'linma tashkil qilindi. Bu bo'linma aniqrog'i Gruziya Marokko, Liviya va Antantaning boshqa mustamlaka davlatlari milliy arboblari bilan aloqaga kirishishlari kerak edi. Berlindagilar separatchilik

⁶⁶ Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976. С.12

⁶⁷ Силин А.С. Экспансия Германии на Ближнем Востоке в конце XIX века. М., 1971. С.65

harakatlarini tashkil qilish va faollashtirish orqali Germaniya dushmanlarining harbiy salohiyatiga qaysidir ma'noda ta'sir o'tkazmoqchi edilar⁶⁸.

Germaniyacha kayfiyatdagi yosh turklar rahbarlari va ayniqsa Anvar poshsho Germaniya bilan tuzilgan harbiy ittifoqdan rozi edi. Bundan tashqari Turkiya Antantaga qarshi harbiy harakatlar olib borishga shoshilmayotgan edi. Istambul payt poylayotgan edi va bu holat Germaniya nazaridan chetda qoldirilmadi. Germaniyaning Istambuldagi elchixonasi Berlinga Turkiyaning antiruskayfiyatini maksimal darajada oshirishni talab qilib, uzluksiz murojatnomalar yuborayotgan edi⁶⁹.

Bundan tashqari Usmonlilar imperiyasini Uchlar Ittifoqiga mustahkamroq bog'lash va Turkiyani birmuncha itoatkor qilishda kayzer Vilgelm II, Turkiyaga qachonlardir imperiya tarkibiga kirgan hududlarni qaytarishni, Turkiyaga moliyaviy yordam ko'rsatishni va Yevropaning Yaqin Sharqdagi harbiy holatida Turkiya manfaatlari maksimal darajada hisobga olinishini bildiradi

⁶⁸ Силин А.С. Экспансия Германии на Ближнем Востоке в конце XIX века. М., 1971. С.66

⁶⁹ Силин А.С. Экспансия Германии на Ближнем Востоке в конце XIX века. М., 1971. С.69

III-bob. Germaniyaning fors ko'rfaziga kirib kelishi va Bog'dod temir yo'li masalasi.

3.1. "Bag'dod temir yo'li" bilan bog'liq muammolar xalqaro munosabatlarda.

Germaniya ingliz- fransuzlar tomonida nazorat qilinayotgan Suvaysh kanalisiz ham nafaqat qisqa, balki uning Sharqiy Afrikadagi nazorati ostidagi kaloniyalari va Namibiya orqali tog'ridan to'g'ri Hindga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. U Forsda o'z nazoratini oshirdi va Rossiya imperiyasini ingliz va fransuzlar bilan aloqa bo'g'lashiga halaqit bera boshladi.

Bag'dod temiryo'l loyihasi orqali Germaniya Usmonlilar imperiyasiga yordam berdi va yo'lning Avstriya-Vengriya hududidan o'tishi bu davlatni Germaniyaga yanada mustahkamroq bog'lashga yordam berar edi. 1871- yilda nemislar turklarning iltimosiga binoan, Dajla va Frot daryolari hududlarini o'rganishdi va bu vodiylar neft konlarining ustida "suzib yurganligi"ni qayd etishdi. "Bog'dod temir yo'li" loyihasi Germaniyaga Kirkuk, Mosul va Basrani temir zanjir bilan bog'lashi kerak edi⁷⁰.

Turk temir yo'li qurilishini asosiy tarafdorlaridan biri kansler Otto fon Bismark edi. Uning fikricha, Germaniyaning manfaatlari hech qaysi mintaqada kelajakda asosiy ittifoqchilari bo'lishi mumkin bo'lgan Avstriya – Vengriya va Rossiya manfaatlari bilan to'qnash kelmasligi kerak edi. Bu siyosiy qarashning shakllanishi esa boshqa davlatlarning ayniqsa Rossiya va Buyuk Britaniyaning bu hududga bo'lgan qiziqishini orttirar edi⁷¹.

Bu fikrni, Kansler to o'zining istefosi 1890- yilga qadar qo'llab – quvvatlay oldi. Vilgelm II esa shaxsan o'zi bu qurilishni qo'llab quvvatadi.yo'l bir necha bosqichda qurildi⁷². 1898- yilda imperator muqaddas joylarni ziyorat qilish uchun

⁷⁰ Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976. С.71

⁷¹ Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976. С.78

⁷² Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976. С.78

Falastinga keladi. 1898-yil oktabrida yo'lda Usmonlilar imperiyasiga ham to'xtab o'tadi va bu yerda Deutsche Bankning direktori fon Simens bilan uchrashadi. Istambulda Vilgelm II va Simenslar alohida- alohida turk hokimlari bilan kondan Bog'dodgacha bo'lgan temir yo'li qurish loyihasi konsessiyasi masalasi bo'yicha muzokaralar olib borishadi. Muzokaralar natijasida Sulton Abdul Hamid II Konsessiyaga Rossiya va Buyuk Britaniyalar ham da'vo qilayotgan bo'lsada uni nemislarga berishga va'da beradi⁷³.

1891-yilda Rossiyaning Turkiyadagi elchixonasi birinchi kotibi Charikov "Kichik Osiyo Temir yo'llari masalasi" nomli hujjatni keltirib o'tadi. Unda, u shunday yozgan edi: "O'rta yer dengizi portlaridan Kichik Osiyoga o'tadigan temir yo'llar G'arbiy Yevropa davlatlari mahsulotlar va kapitalini bu hududlarda ko'payib ketishiga olib keladi. Ular Eron hududlariga ham kirib keladi⁷⁴.

Bu esa Rossiyani Qora dengizga chiqishini cheklab mamlakatimizning janubiy hududlari kalitini Yevropa yoki aniqrog'i dunyo miqyosidagi urushlar orqaligina qaytarib olish mumkin bo'lgan qo'llarga beradi". Buni nemislar ham ko'rsatib o'tadi. Bir nemis strategig yo'l qurilishi yakunlanishi Rossiyani Yaqin Sharqdan uzilib qolishini taminlaydi deb belgilagandi(Rosbalt). Natijada Temir yo'l qurilishi Fransiya, Angliya va Rossiyani Germaniyaga qarshi Antanta ittifoqiga birlashishiga olib keldi⁷⁵.

Nemis publisisti shunday yozgan edi " So'nggi Marokash inqirozining dastlabki yillaridan nemis millatiga nisbatan bunday qarshilik kayfiyati oddiy ko'rinishga aylanib qoldi. Faqatgina, umumyevropa urushlari orqaligina mamlakatimizning xalqaro siyosiy faoliyati erkinligi uchun kurashish mumkin

⁷³ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С.89

⁷⁴ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С.89

⁷⁵ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С.91

edi”. Bog’dodbon temir yo’li uchun relslar tayyorlanayotgan Krupp zavodlariga kelgan turk delegatsiyalari urushning boshiga qadar ham davom etdi. Alohida joylardagi ishlar birinchi jahon urushi davrida ham davom ettirildi⁷⁶.

Faqatgina 1936-yilda Suriya va Iroq aloqani uzishdi. 1940-yil 15-iyulda , konsessiya taqdim etilgandan 52 yil o’tib temir yo’ldan to’liq foydalanish mumkin bo’ldi, birinchi ekspress Istambuldan Bog’dodgacha bordi. Shunisi qiziqki, bu temir yo’l loyihasi 1830-yillarda polkovnik Frensis Chesni (yoki Chestni) bu ish bilan shug’ullangan vaqtlarida Germaniyada tayyorlangan edi, lekin loyiha Suvaysh kanali qurilishi boshlangandan so’ng to’xtab qolgan edi⁷⁷.

1915-yil Turkiya armiyasi urushga kirganda 6 oy o’tib, Istanbul hokimiyati minglab armanilarni Anatoliyadagi hududlaridan mahrum qiladi. Haydalganlar Bog’dod temir yo’li davlatlariga olib kelinadi. Lekin Nemislar tomonidan Kichik Osiyoda yotqizilgan relslar dunyoviy qarama – qarshiliklar boshlanishiga ishora bo’lganligini aniq aytib bo’lmaydi⁷⁸.

1871-yilda Prussiya monarxiyasi harbiy harakatlari natijasida Germaniyaning birlashtirilishi yakunlandi. Yevropaning yirik mamlakatlaridan birining siyosiy parokondaligiga barham berildi. Germaniyaning birlashtirishi masalasi anchadan buyon shakllanib kelayotgan edi. Birlashuvning yakunlari “yuqoridan” bosqinchilik urushlari bilan bordi. Prussiya yunkerligi birlashuv jarayonida hukmron kuch sifatida bo’lib, bunda militarizm siyosati asosiy rol o’ynadi.

Shimoliy Germaniya ittifoqidan tashqari nemis davlatlari Bismark tomonidan Prussiyaga bo’ysundirildi. Germaniya imperiyasi avtonomiyani saqlab qolgan 22 nemis monarxiyasi va uch ozod shahar Lyubek, Bremin va Gamburni birlashtirdi.

⁷⁶ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 89

⁷⁷Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 90

⁷⁸ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С.88

Ular ichida eng yirigi Prussiya bo'lib - uning hududi Germaniyaning $\frac{2}{3}$ qismini, aholining esa 60 % ni tashkil qilgan⁷⁹.

Germaniyaning siyosiy va harbiy ekspansiyasiga XIX asr oxirgi choragiga xos bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar sabab bo'ldi. Germaniyaning birlashtirilishi uning kapitalistik o'sishiga turtki berdi.

1871-yil boshlangan Fransiya- Prussiya urushdagi Fransiya mag'lubiyatidan so'ng, undan olingan yirik hajmdagi kontributsiya Germaniya sanoati rivojining birinchi qadamiga moliyaviy tayanch bo'lib xizmat qildi⁸⁰.

Temiryo'l qurilishi, mashinasozlikni o'sishi, Rurdagi tog'- kon sanoati kengayishi va metallurgiya aniqrog'i po'lat eritish kabi sanoat sohalarida rivojlanish jarayonlari tezlashdi. 1895- yilda Germaniya imperiyasi sanoati Buyuk Britaniyani ortda qoldirgan holda, Yevropada birinchi o'ringa chiqdi. Germaniya mashina ishlab chiqarish, kimyo sanoati, aniq mexanika va optika, elektrotexnika kabi fan sohalarida ancha oldin ilgarilab ketgan edi⁸¹.

XIX asr oxirida Germaniya iqtisodiyoti uchun quyidagi ikki xususiyat xos bo'ldi. Bular: bank kapitalining mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynashi va sanoatning turli sohalarida trest va kartellarning ahamiyati oshishi edi.

German ekspansiyasining reaksiya va shiddatli rivojlanishi siyosiy va iqtisodiy bosqinchilikdan iborat bo'lib, u asosan dunyoga hukmronlik qilishga qaratilgan edi. German ekspansiyasi faqatgina Angliya Fransiya va boshqa mustamlakachilarning Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikadagi hududlarini egallashdan iborat bo'lmay, Germaniya o'zining hududlarini Yevropada Avstriya,

⁷⁹ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С.66

⁸⁰ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 67

⁸¹ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 89

Gollandiyaga, Daniya Shvetsiya va boshqa davlatlarning hududlari hisobiga kengaytirishdan ham iborat edi⁸².

Germaniya ekspansiyasi tashkilotchilarining taxmin qilishlariga ko'ra, bu siyosatning yakuni "Buyuk Germaniya" tuzilishiga olib borishi, "O'rta Yevropa"da umumgerman davlati bo'lib u dunyoning qolgan davlatlariga hokimlik qilishi kerak edi.

Fransiyadan Elzas va Lotaringiyani tortib olgandan (Frankfurt shartnomasiga binoan – 1871-yil 10-may) so'ng, german militarizmi mashhur doktrina "Sharqqa hujum" (Drang nach Osten)ni tayyorladi⁸³.

German ekspansiyasining sharqdagi rejalari Rossiya imperiyasini bo'lib, Boltiqbo'yi, Ukraina va Kavkaz hududlarida o'z hukmronligini o'rnatishdan iborat edi. German ekspansiyasi bosqinchilik harakatlarida, o'zaro bellashayotgan imperialistik davlatlarning siyosiy va strategik manfaatlari kesishayotgan - Yaqin Sharq asosiy o'rinni egalladi⁸⁴.

German ekspansiyasining tashkilotchilari fikriga ko'ra, bu hududlarda Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy mavqeyini oshirish imperiyaning Fors qo'ltig'iga chiqishini va Hindistonga ta'sir ko'rsatish uchun sharoit yaratishni ta'minlashi kerak edi.

German bosqinchilari Yaqin sharqdagi hukmronlikning kengayishni boshlash uchun tayanch sifatida Usmonlilar imperiyasini tanladi. Bu tanlov sulton hukmronligi strategik jihatdan Osiyo, Yevropa va Afrikaga yoyilganligi uchungina emas, balki boshqa omillarga ham bog'liq edi⁸⁵.

⁸² Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983.с. 120

⁸³ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 122

⁸⁴ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С.92

⁸⁵ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 96

Erkin raqobat davrida, hali Germaniya yagona davlat sifatida Yaqin Sharqqa siyosiy – strategik qiziqish bildirmagan davrlarda, nemis sanoati mahsulotlari Usmonlilar imperiyasining chekka hududlarida ham o'z o'rniga ega edi. Nemis sayohatchilari, izlanuvchilari, shifokorlari va muhandislari Turkiyaning ko'pgina mahalliy hukmdorlari va feodal amaldorlari saroylariga mehmon sifatida tashrif buyurishar edi.

Shu davrdan boshlab, keyingi davr nemis-turk munosabatlarida kapitalning monosiyosiy hukmronligi vujudga kelishi va rivojlanishini asosini taminlagan aloqalar tashkil topa boshladi⁸⁶.

Prussiyaning Avstriya(1866) va Fransiya ustidan g'alabasi, Germaniyaning birlashtirilishi va uning iqtisodiy va siyosiy qobilyatining keskin suratlarda o'sishi butun Sharqda va ayniqsa Turkiyada yaxshi ta'surotlarni rivojlantirdi.

Sulton va uning atrofida nigo Germaniya tutgan yo'l ideal sifatida baholandi. Sulton va uning yaqinlari tasavvuriga ko'ra, kayzer – hukmdor, reyxkansler – buyuk vazir, Germaniyaning prusslashgan armiyasi esa – qurolli kuchlar uyushmasining ko'rinishi bo'lib, u mamlakat ichidagi xoinlarni yo'q qilishi va uning chegaradagi dushmanlariga xavf solishi kerak edi⁸⁷.

Konstantinopolda pruss harbiy maslahatchilari va mutaxassislari xizmatlari doimo yuqori baholanar edi. Shaxsiy armiyaning kuchsizligidan tashvishga tushgan Sulton saroyini pruss lad bataliyonlari va polklaridagi ta'lim berish o'ziga jalb qilgan edi.

Germaniya imperiyasi tashkil etilishidan oldin, Konstantinopolga birinchilardan bo'lib taklif etilgan mashhur harbiy mutaxassislardan biri pruss

⁸⁶ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 128

⁸⁷ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 132

generali Moltke bo'lib, u keyinchalik Prussiya feldmarshali va Germaniya genshtabi boshlig'i bo'ladi⁸⁸.

Moltke Turkiya armiyasining Sharqiy Anatoliyaga bo'lgan hujumi rejasini ishlab chiqishda faol qatnashadi. Bu yerda bo'lg'usi nemis feldmarshali rahbarligida topografik tahrirlash amalga oshiriladi. Bu rayonning katta masshtabdagi xaritasi tuzilgan bo'lib, undan Turkiya armiyasi birinchi jahon urushigacha foydalangan edi⁸⁹.

Mana shunday sharoitda haqiqatdan ham mamlakatda germaniyacha muhit tezda rivojlanib bordi. Osmanlilar imperiyasi siyosiy doira vakillari kayzer Germaniyasi bilan siyosiy aloqalarga yanada intila boshladilar⁹⁰.

Sultonni o'rab turgan hukmron doira vakillari Germaniya bilan yaqinlashishni buyuk davlatlar tazyiqi kuchayishidan himoyalash kafolati sifatida baholashdi. Germaniya tarafdorlari Turkiyaning o'zini himoya qilish siyosatida o'zaro kelishmayotgan dushmanlari holatidan foydalanishni yoqlab chiqishdi⁹¹.

Bu davrda Turkiya sultonligi amaldorlarining Germaniya bilan harbiy – siyosiy ittifoqni tuzilishga harakatlari paydo bo'lishi va rivojlanishida, bir tomondan Germaniyaning sharq siyosati va ikkinchi tomondan uning raqobatchilari fransuz – inglizlar o'z o'rniga ega edi.

XIX asr oxiridan boshlab inglizlar va fransuzlar Usmonlilar imperiyasini egallash va bo'lishga ochiqdan-ochiq da'vo qilayotgan bo'lsa, Germaniya

⁸⁸ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеинная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 236

⁸⁹ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеинная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 139

⁹⁰ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С.99

⁹¹ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеинная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С.149

imperiyaachilari butun sultonlikda iqtisodiy va siyosiy hukmronlik qilish maqsadini niqoblagan holda, Turkiya hududlariga dahl qilmaslikni va uning butunligini saqlab qolishni yoqlab chiqayotgan edi⁹².

Sharqda germancha muhitni keng yoyilishida pangermanlar targ'ibotlari ham muhim rol o'ynaydi. Pangermanlar tomonidan tashkil qilingan targ'ibotdan asosiy maqsad Germaniya Turkiya uchun xolis hamkor ekanligini isbotlash edi.

Vilgelm II ning Yaqin Sharqdaligi vaqtida so'zlagan nutqi bu targ'ibotning muhim bosqichi bo'ldi⁹³.

Kayzerning butun musulmon dunyosi va o'zining yangi do'sti "hamma qirollar qiroli va hamma xalifalar xalifi"ga – sulton Abdul Hamidga bag'ishlangan nutqi, ayrim Yevropalik kuzatuvchilar tomonidan sharq mezbon monarxiga nisbatan oliyjanob hatti harakat sifatida baholandi.

Haqiqatda esa, kayzerning "muqaddas joy"ga qilgan "ziyorati va unda so'zlagan nutqi aniq maqsadni ko'zlagan edi. Buni nemis bankirlari va sanoatchilar yaxshi anglashar edi⁹⁴.

Germaniyaning bu davrdagi siyosiy mavqeyining oshishi nemis monopolistik kapitali uchun Usmonlilar imperiyasiga kirib borishning keng sharoitlarini yaratdi. Iqtisodiy kirib borish bilan bir vaqtda Germaniya imperiyasining Usmonlilar imperiysidagi siyosiy mavqeyi ham o'sib bordi.

Turk armiyasi va uning qurollanishini yangilash, Prussiya harbiy akademiyasida ofitserlik korpusini tayyorlash va boshqa maqsadlarda yuborilgan

⁹² Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 100

⁹³ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 145

⁹⁴ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 149

fon der Golsem (1883-1895) va Liman fon Sanders (1913-1918) boshchiligidagi missiya Sulton saroyi va qurolli kuchlari holatini mustahkamladi⁹⁵.

Keyzer Germaniyasining Yaqin sharqda ta'siri kuchaygan sari u Turkiya sultoni hokimiyatini ichki va tashqi siyosatini qo'llab – quvvatlashini, Usmonlilar imperiyasi hududiy yaxlitligi saqlash himoyasini va boshqa qaram xalqlar ustidan turk harbiy- feodal hukmronligi saqlanishini tarafdori ekanligini ochiqdan ochiq bildiradi boshladi⁹⁶.

German imperialistlari mo'ljaliga ko'ra bu siyosat- birinchidan: Usmonlilar imperiyasini bo'lib olishni maqsad qilgan eski imperialist hukmdorlar ya'ni raqiblarining Yaqin sharqdagi holatini zaiflashishini; ikkinchidan: itoatkor hamkor tomonidan dushmanlardan himoya qilinayotgan katta hududlar german savdo va sanoat kapitali uchun faoliyat maydoni bo'lishini; uchinchidan: turk hukumati tomonidan olib borilayotgan an'anaviy ekspansionizm siyosati Germaniyaning yangi hududlarga ta'sirini kuchayishini taminlashi kerak edi⁹⁷.

XIX asrning oxirgi choragida Iroq Buyuk Britaniya va Germaniya o'rtasidagi urush maydoniga aylandi. XIX asr oxirida Mosuldan boy neft manbalarining topilishi va Germaniyani Bog'dod temir yo'li qurilishiga hamkorlik qilishi Yaqin Sharqda ingliz – fransuz ziddiyatlarini favqulotda kuchaytirdi, bu ayniqsa birinchi jahon urush oldidan yaqqol namoyon bo'ldi.

Bog'dod temir yo'lining umumiy uzunligi 3000 km ni tashkil qilishi, qurilishning puxtaligiga ko'ra poyezd kuryerlari 70 km\soat tezlik bilan harakatlanishi va Konstantinopoldan Bog'dodga 40 soatda yetib kelishi kerak edi. Konsessiyaga ko'ra, qurilish muhlati 8 yilga ya'ni 1908-yiliga qadar belgilangan

⁹⁵ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 102

⁹⁶ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 111

⁹⁷ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 112

edi. Bu yo'l quruvchilariga qurilish hududidan yo'lning 10 km uzoqlikda u va bu tomonidagi foydali qazilmalardan foydalanish huquqi berilgan edi⁹⁸.

Shunday qilib, Germaniyaning imperialistik xaritasi oxirigacha namoyon bo'ldi va Germaniya o'zining yana bir yangi obyekti dunyoning boy tabiiy sharoitiga ega bo'lgan, kelajakda Fors ko'rfazidan Hindistonga yo'l ochadigan mamlakatga - Tigr va Yefrat oralig'idagi - Mesopatamiyaga da'vo qila boshladi⁹⁹.

XX asr boshida Turkiya Germaniyaga Istanbuldan Basragacha bo'lgan temir yo'l qurilishi konsessiyasini taqdim etdi. Bunda, Buyuk Britaniya, ingliz neftining asosiy manbasiga aylangan Eron neft konlariga to'gridan – to'gri xavfni ko'rdi¹⁰⁰.

Arab davlatlarida kesishayotgan xalqaro siyosiy vaziyat arablar uchun izsiz ketmadi. Ular bunda o'zlarining taqdirini o'zgartirib yuboradigan urushlarni ko'rdi. Keskin suratlarda tezda o'sib borayotgan nemis metallurgiya sanoati mahsulotlariga yangi bozor topish va shu bilan birgalikda Usmonlilar imperiyasini po'lat zanjir bilan Germaniyaga bog'lash maqsadida nemis temirchilari Krupp va Tissen boshchiligida Gamburg- Berlin – Bog'dod temir yo'l loyihasini ishlab chiqdilar¹⁰¹.

Mashhur muhandis Vilgelm fon Pressel tomonidan ishlab chiqilgan boshlang'ich loyihaga ko'ra, Bog'dod yo'li Marmar dengizidagi Haydar – poshshodan, aniqrog'i Konstantinopolning o'zidan boshlanishi kerak edi. Bu hududdan yo'l Qora dengiz qirg'oqlariga parallel ravishda Anatoliyaning shimoliy qismiga borishi, keyin esa Sivas orqali arman va eron karvonlari o'tadigan

⁹⁸ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 148

⁹⁹ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 152

¹⁰⁰ Шумов С.А., Андреев А.Р. Ирак: история, народ, культура. Документальное историческое исследование. - М.: Монолит-Евролинц-Традиция, 2002.-232с

¹⁰¹ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 158

yo'nalishda borib bu yerdan, Kavkaz chegarasidagi Erzerum va Bitlisga bo'linishi kerak edi¹⁰².

Pressel loyihasiga ko'ra, keyin yo'l janubiy – sharqiy yo'nalishda burilib Sivas , Diarbekir, Mosul orqali Bog'dodga , u yerdan esa Fors ko'rfaziga yo'nalishi kerak edi. Bu qismlarga parchalangan Usmonlilar imperiyasini temir zanjir orqali bir butun qilib bog'lashga va mamlakatning istalgan hududida, ayniqsa ruslarga chegaradosh hududlarida zarur bo'lganda qo'shinni tezda harakatga keltirishni taninlovchi puxta o'ylangan harbiy- strategiya yo'l edi¹⁰³.

Turk hukumati Pressel loyihasini qabul qildi. 1871- 1872- yillarda Haydar poshshodan Ismadgacha bo'lgan 92 km yo'l qurildi. Ammo keyingi 10 yil 1873-1889 -yillarda ishda bir qadam ham oldinga siljish bo'lmadi. Shunisi aniq ediki Turkiya o'z kuchi bilan Pressel loyihasini yarimini ham amalga oshira olmas edi. Sulton hukumati mamlakatni harbiy yangilash bilan bog'liq bo'lgan Germanlarning Turkiyadagi temir yo'l qurilishidagi yordamini ma'mnuniyat bilan qabul qildi¹⁰⁴.

1888-yilda “Doyche Bank” “Anatoliya temir yo'li nemis jamiyatiga ” asos soldi va Kichik Osiyadan Angoragacha temir yo'l o'tkazish konsessiyasini qabul qilib, keyingi Bog'dodgacha bo'ladigan konsessiga boshchilik qilishga va'da berdi¹⁰⁵.

Bu temir yo'li konsessiyasidan Germaniya tashqi siyosatida yangi davr boshlanadi yoki bu konsessiya Germaniyaning Yaqin Sharqqa bo'ladigan aniq va ochiq harakatlariga poydevor bo'ladi.

¹⁰² Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С159

¹⁰³ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С101

¹⁰⁴ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 134

¹⁰⁵ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983. С. 155

Shunisi aniqki, Bog'dod temir yo'li yakunlangandan so'ng nafaqat butun Kichik Osiyo Germaniya ta'siri ostiga o'tar edi balki, bundan tashqari nemis kapitali Eronga ham "qo'lini uzata olishi"ni taminlar edi¹⁰⁶.

Turk general shtabi harakatlari bilan Bog'dod temir yo'li loyihalari Kavkaz chegaralariga yaqinroq kelishi taminlandi. Shunga ko'ra, "shimoliy variant" bo'yicha Bog'dod temir yo'li Angoradan Loz- gad, Tokat, Sivas, quyi Malatiya, Xatput va Diakbekir orqali davom etishi belgilandi. Oxirgi punktdan temir yo'l shimoliy Mesopatamiyaga tushishi kerak edi¹⁰⁷.

"Shimoliy yo'l" Turkiyaning Kavkazdagi harbiy qobiliyatini oshirar edi, Rossiya esa 1900- yilda Turkiya bilan Angora, Kaysariya, Sivas, Diarbekir, Van yo'nalishlari temir yo'li qurilishini Portaning o'zi yoki Rus tadbirkorlari moliyaviy tomondan taminlashini yoki Anatoliya qurilishi german jamiyatiga taqdim qilgan sharoitlarda Bog'dod yo'nalishi bo'yicha qurish masalasi bo'yicha Turkiya bilan muzokoralar olib borishga muvafaq bo'ldi¹⁰⁸.

Rossiyaning qarshiligi natijasida nemislar Bog'dod temir yo'lining "janubiy variant"ga e'tibor qaratdi bu esa Turkiyaga "shimoliy variant" dek strategik natija bermay, iqtisodiy aloqalarda tadbirkorlar uchun anchagina qulay sharoitlar yaratib berar edi.

"Janubiy variant"ga ko'ra Bog'dod temir yo'li Erigliga Adana islaxiya, Djerabulus, Ras- el- ayn, Mosul, Bog'dod, Nedjef, Koveyt orqali o'tar edi¹⁰⁹.

1910-yil uzoq muzokaralardan so'ng Bog'dod temir yo'li qurilishini Bog'dodgacha davom ettirishga qaror qilindi.

¹⁰⁶ Шумов С.А., Андреев А.Р. Ирак: история, народ, культура. Документальное историческое исследование. - М.: Монолит-Евролинц-Традиция, 2002.-165с

¹⁰⁷ Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983 с. 99.

¹⁰⁸ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 95

¹⁰⁹ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 56

Birinchi jahon urushi arafasida Bog'dod temir yo'lining janubiy qismi Haydar – poshshodan Ris- el ayngacha qurildi. Urush davrida yo'l Nisibin shahrigacha olib borildi¹¹⁰.

Birinchi jahon urushi boshlanishi davrida Iroq, Suriya, Livan, Falastin Usmonlilar imperiyasi ta'siri ostida bo'lsada, ular XX asr boshlarida Yevropa kapitalining yarim mustamlakasiga aylangan edi. Iroqdagi kolonial ekspansiyada asosiy o'rinni ingliz kapitali egallagan bo'lsa, Mosulda boy neft zahiralari ochilgandan so'ng o'sib borayotgan nemis kapitali uning asosiy raqobatchisiga aylandi. Suriya va Livanda esa fransuz kapitali hukmronlik qilar edi. Suvaysh Kanali ochilgandan so'ng, Falastinning ham siyosiy va strategik ahamiyati oshdi va Angliya, Fransiya, Germaniya unda o'z ta'sirini kuchaytirishga urina boshladilar¹¹¹.

¹¹⁰ Шумов С.А, Андреев А.Р. Ирак: история, народ, культура
Документальное историческое исследование. - М.: Монолит-Евролинц-Традиция, 2002.-132с

¹¹¹ Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955. С. 125

3.2. Birinchi jahon urushida Germaniyaning Sharq siyosati

1914-yil Bosniya va Gersogoviniya poytaxti Sarayevoda ersgersog frans Ferdinantning o'ldirilishi birinchi jahon urushi boshlanishi uchun bahona bo'ldi. Avtriya- Vengriya bu qotillikdan Serbiyaga qarshi harbiy harakatlar boshlash uchun bahona sifatida foydalanishga qaror qildi.

Urush rejalarini ishlab chiqishda Germaniya general shtabi bir vaqtda ikki frontda ya'ni, Fransiya va Germaniyaga qarshi urush olib borishdan saqlanishga harakat qildi. Kayzer general shtabi birinchi va hal qiluvchi zarbani Rossiya yoki Fransiya berish masalasini qilishi kerak edi. Germaniya birdaniga ikki frontda urush olib bora olmas edi, bunda dushmanlari birgalikda Germaniya kuchidan o'zib ketar edi¹¹².

1915 - yilda urushning uzoq cho'zilib ketishi xom ashyo ba'zasi va mahsulotlar bozori bo'lgan Yaqin Sharqning ahamiyatini oshirdi. Imperialistik davlatlar bu hududda hukmronlik qilish uchun kurashni kuchaytirib yubordi. Harbiy harakatlar tobora kengaya bordi. Ular Kavkaz , Mesopatamiya , Suriya – Falastin frontlarida olib borilar edi. Eng ahamiyatlisi esa Kavkazdagi harakatlar edi¹¹³.

Bu frontdagi urush harakatlari faqatgina Antantaning bir davlatiga sharqiy frontda urush boshida 30%, keyinchalik 50% harbiy kuchlarini to'plagan davlatiga qaratilgan edi¹¹⁴.

Chor Rossiyasi Turkiyaga qarshi umumiy hisobda 200 ming kishini qo'ya olar edi. Nemislar ishlab chiqqan rejaga ko'ra, turklarning Kavkazortidagi harakatlari omadli kelsa, Rossiya ittifoqchilari bilan bog'lab turadigan Eron orqali o'tadigan asosiy yo'ldan mahrum bo'lar edi. Aloqa blokadasini Antanta davlatlari uchun jiddiy zarba bo'lar edi.

¹¹² Аветян А.С. Германский империализм на Ближнем Востоке. - М., 1966. С. 46

¹¹³ Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976. С. 55

¹¹⁴ Санталов А. А. Империалистическая борьба за источники сырья. М., 1954. С.11

Turkiya ixtiyorida odam va iqtisodiy zaxira yetarli bo'lsada, lekin mamlakatning harbiy tayyorgarligi nihoyatda sust bo'lib, urushayotgan guruhlar kuchiga jiddiy ta'sir ko'rsatishga qodir emas edi. Shunday bo'lsada, Turkiyani markaziy davlatlar tomonidan urushga kirishi muvaffaqiyatsizliklar davrida g'arb frontiga muhim omil – ruhiy dalda berar edi. Germaniya va Avstriya – Vengriyada bu omilga e'tibor qaratildi: ular Usmonlilar va shu bilan birgalikda Rossiya imperiyasi xalqlari orasidagi musulmonlar birdamligiga ishonishayotgan edilar¹¹⁵.

Kavkaz frontlaridagi birinchi urushlar nemis – rus frontidagi nemislarning Podzingga bosqini bilan bir vaqtga to'g'ri kelib qoldi. G'arbiy frontda muvaffaqiyatsizlikka uchragan nemislar urush markazini sharq arenasidagi harbiy harakatlarga ko'chirishga harakat qildi. Rus qo'shinlarining Germaniyaga hujumini bartaraf etib, Germaniyaning asosiy ittifoqchisi Avstriya- Vengriyani mag'lubiyatga uchrashdan saqlab qolishi kerak edi. Rus armiyasiga Kavkazdagi qo'shnlardan g'arbdagi harakatlarda foydalanish imkonini bermaslik uchun nemislar, turklarni urushga kirishga va Kavkazortiga bo'ladigan yurishni tezlashtirishga undadi¹¹⁶.

Turk va nemis ittifoqining kuchi urushning dastlabki haftasida Keprikiy operatsiyasi va Shtanke otryadini yorib o'tishgagina kuchi yetdi, bu esa Yevropadagi urushga hech qanday ta'sir ko'rsata olmas edi. Shuning ushun nemislar Kavkaz Frontidagi dastlabki harakatlardan norozi bo'lishdi¹¹⁷.

Keprikey operatsiyasi davrida turk qo'shinlari 3 - armiyasiga boshchilik qiluvchi Xasan – Izzat poshsho dam olish va armiya safini tiklab olish uchun tanaffus qilishni so'raydi, bunga javoban esa , Liman fon Sanders tomonidan u o'z vazifasidan ozod qilinadi¹¹⁸. 3-armiyagaga harbiy vazirning o'zi Anvar – poshsho boshliq bo'ldi shtab boshlig'i sifatida unga nemis generali Bronzart fon Shelendorf

¹¹⁵ Туполев Б. М Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С. 56

¹¹⁶ Туполев Б. М Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991. С. 45

¹¹⁷ Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976. С.125

¹¹⁸ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978 с. 89

biriktirildi. Shtabning boshqa muhim bo'limlariga ham nemis harbiy ofitserlari boshchilik qila boshladi. Turklar va ularning nemis boshliqlari bir oy davomida harbiy harakatlarga tayyorgarlik ko'rdi. Zaxiradagi qo'shinlar hisobiga frontdagi qo'shinlar soni rus qo'shinlaridan oshib ketdi. Shtanke otryadi ikki marta oshirildi.

22 – dekabrda turk armiyasi butun front bo'yicha yurishlarni boshlab yubordi. Ruslarning Kavkaz armiyasi tog' lanshaftlaridan unumli foydalangan holda, turklarning hujumini bartaraf etdi. Oltin va Sarikamish yo'nalishlarida ustunlikka ega bo'lgan nemislar rus qo'shinlarini chekinishga majbur qildi¹¹⁹.

25- dekabrda turklar Sariqamishdagi rus qo'shinlarining asosiy punktlarini egalladi. Front chizig'i Sariqamishgacha yetdi. Shu kuni Shtanke qo'shinlari Ardagan shahrini egalladi.

Rus qo'shini tahlikali vaziyatda qoldi. Shelendorf va uning shtabi tomonidan ishlab chiqilgan Kavkaz armiyasini o'rab olib, tor mor etish va Kavkaz ortini egallash rejasi amalga oshirish arafasida edi¹²⁰.

Lekin, Kavkaz armiyasi sarosimaga tushmadi. Rus armiyasi dushmanning hujumiga bardosh berdi.

Shtanke otryadi bilan og'ir urushlarni olib borayotgan general Genik bo'linmasiga Arxansixdan general Kalitin boshchiligidagi qozoq brigadasi yordamga keladi. Oltin yo'nalishi bo'yicha himoyalananayotgan qo'shinlarni mustahkamlash uchun Karsdan general Gabayev boshchiligidagi 3- Kavkaz o'qchi brigadasi yordamga keladi¹²¹.

Sariqamish himoyachilari uchun eng qiyini general Baratov bo'linmasiga tushadi. 29 - dekabrda bu bo'linmalar general Krijanov bilan birgalikda Sariqamishdagi hal qiluvchi zarbani beradi. Rus armiyasining mardonovor va qatiy

¹¹⁹ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 77

¹²⁰ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 78

¹²¹ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 88

harakatlari dushman qo'shinini sarosimaga solib qo'yadi. 1915-yil 1 – yanvarda dushmanning orqa tomoniga o'tgan rus jangchilari otryadlaridan biri keyingi yurishlarda muhim rol o'ynagan Bardus davonini egallaydi bu esa turklarning holatini o'g'irlashtiradi¹²².

4-yanvarda rus qo'shinlari Sariqamishdagi hal qiluvchi yurishni boshlaydi. Turklar sarosimaga tushib, shaxsiy tarkib va qurollanish jihatidan katta yo'qotishlar bilan chekina boshlaydilar.

Ardaganda Sibir qozoq brigadasi Shtanke otryadini tor mor keltiradi. Turklar jarohatlangan, asirga tushgan va o'ldirilganlar bilan qo'shib hisoblaganda bir necha ming kishini yo'qotadi. Qolgan qo'shin Oltaga qarab yo'l oldi, ammo yo'lda hal qiluvchi zarbaga uchrashadi. Shtankening o'zi esa bir necha yuz kishilik hamrohlari bilan birgalikda Xop tomonga qochishga muvaffaq bo'ladi. 5- yanvar kuni ruslar turklar bosqiniga qadar egallangan hududlarda vaziyatni tiklashga muvaffaq bo'lishadi¹²³.

Bu urushlar Sariqamish operatsiyasi nomi bilan ma'lum bo'lib turklarga hal qiluvchi zarbalar berilgan edi. Turklarning uchinchi armiyasi o'zining 2\3 qism qo'shinidan mahrum bo'ldi. Anvar poshsho va general fon Shelendorf qo'shinni tashlab Konstantinopolga qochadi.

Turkiyaning asosiy hududlarida faoliyat olib borgan rus qo'shinlari egallangan hududlarda mustahkamlana boshladi¹²⁴.

Nemis-turk rejalarini butunlay barbod qilgan Sariqamish operatsiyasi Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlar holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Turklar rus qo'shinlariga sharqdagi yo'lga to'siq qo'yish uchun Mesopatamiya va Suriya-Falastin frontlaridan qo'shinlarini olishga majbur bo'ladi.

¹²² Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 120

¹²³ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 120

¹²⁴ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 46

1915-yilda nemis agentyurasi qo'llab quvvatlashi natijasida proturk targ'ibotini Eron G'arbiy Ozarbayjon v Afg'onistonda keng yoyilib bordi. Ish bu bilan to'xtab qolmadi. Antanta davlatlarining G'arb sahnasidagi harbiy harakatlardaagi omadsizligi Markaziy Davlatlar tarafdorlarini faol harakatlar qilishga undadi¹²⁵.

Shoh hokimiyati progerman va panturk kayfiyatidagi siyosatchilar bosimi ostida Rossiyadan, Eronning shimolidagi qo'shinlarini olib chiqib ketishni talab qilishga qaror qildi.

Eron harbiy qo'shinida nemis- turk agenturasining kuchayishi natijasida ularni Rossiya qo'shiniga qarshi kurashishga undadi. Shu bilan birgalikda Eronda Rossiyaning shimolidagi hududlaridan qochgan Avstriya – Vengriya harbiy qo'shinlari to'plandi. Ular mahalliy aholidan tuzilgan qurolli kuchlarning asosiga aylanishdi. Bu otryadlarga qurol-aslahalar Afg'onistondan olib kelindi. Ularning umumiy soni Shoh jandarmlari bilan qo'shib hisoblaganda bir necha o'n ming kishini tashkil etar edi¹²⁶.

Bu kuchlardan Kavkaz armiyasiga qarshi zarba sifatida foydalanish uchun turklar Van va Urmiya ko'llari hududlarida katta harbiy birlashmalarni tashkil qildi. Rossiya armiyasi iyul- avgust oylari davomida turklarga zarblar berib tinkasini quritgach, Alashkert vodiysida hal qiluvchi zarbani berdi.

Kavkaz armiyasi Eronda ruslarga qarshi tayyorlanayotgan qo'shinlariga qarshi Eronga maxsus bo'linma jo'natishga qaror qildi.

Bunday bo'linma noyabrdan boshlanib tayyorlanib 13-noyabr kuni general Baratov boshchiligida Ezel portiga joylashtirildi. 20 - noyabrda Kavzinni egallagach korpus Tegeran, Kuma, va Hamadonni egallashga kirishdi¹²⁷.

¹²⁵ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 46

¹²⁶ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 49

¹²⁷ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 49

Rus armiyasining Tegeranga yurishlarida xabar topgan shahar aholisi vahimaga tushdi. Ruslarga qarshi kurashishi kerak bo'lgan jandarm bo'linmalari qochib ketishdi. Eron poytaxtini shohning atrofidagi nemis agenturasi ham tezda tark etdi. Davlat Antanta davlatlariga sodiqligini bildirishga kirishdi. Seva va Kum shaharlarini rus qo'shinlari egallashdi. 3- dan 16- dekabrgacha bo'lgan urushlarda Avstriya – Vengriya harbiy qo'shinlaridan tuzilgan bo'linmalarning bir qismi tarqatib yuborildi bir qismi esa tor mor etildi. Korpus, Ave va Xamodonna egalladi¹²⁸.

Shunday qilib Kavkaz Fronti chap falangasi orti mustahkamligi taminlanib, Eron tomonidan Tiflis va Bokuga uyushtirishi mumkin bo'lgan hujum bartaraf etildi.

Rus qo'shinlari Mesopatamiyada og'ir urushlarni olib borayotgan inglizlar bilan aloqa bog'lash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ammo inglizlar bu aloqadan vujudga keladigan operativ - strategik imkoniyatdan to'lig'icha foydalanishni xohlamas edi¹²⁹.

Eronda vaziyatni tiklanishi rus armiyasi boshliqlarini Kavkazorti janubini o'rab turgan qo'shinni bo'shatib, ulardan Kavkaz frontida foydalanish imkoniyatini yaratib berdi. Alashkert va Xamadon operatsiyalari shu bilan yakunlanmadi. Turklarning va ularning hamkori german eskpansionistlarining O'rta Osiyo musulmonlaridan Rossiyaga qarshi foydalanish rejasi yo'qqa chiqdi. Panturklarning avantyuristik rajalari barbod bo'ldi¹³⁰.

1917- 1918- yillarda chetda sodir bo'lgan harbiy – siyosiy vaziyat Antanta davlatlari kabi Markaziy Davlatlarni ham urushni tezroq tugatish kerakligi bilan ogohlantirdi. 1918- yil fevral oyining oxirida Germaniya bosh shtabining birinchi general kvartirmeystiri E. Lyudendorf bir hisobotda shunday yozgan edi: “Biz toki iqtisodiy rivojlangan va farovon davlatga ehtiyoj sezar ekanmiz bizda urush yoki

¹²⁸ Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978. С. 51

¹²⁹ История первой мировой войны 1914-1918 гг. — М.: Наука, 1975. С. 265

¹³⁰ История первой мировой войны 1914-1918 гг. — М.: Наука, 1975. С. 256

tinchlikni tanlash imkoni yo'q. Lekin biz birinchi marta Fransiya nisbatan hujum yoki himoyalashni tanloviga duch kelganmiz ". Uni: "Germaniya oliy hokimiyati g'arbda katta hujum tashkil qilish uchun mavjud vaziyatdan foydalana oladimi yoki bu hujumni amalga oshirmay, rejalashtirilayotgan himoya va Italiya va Makedoniyaning qayerlaridadir chalg'ituvchi zarbalar tashkil qilish bilan kifoyalanadimi? " degan masalalar tashvishlantirayotgan edi¹³¹.

Germaniya strateglari mavjud vaziyatni qisqa muddatda Antanta armiyasini yengish va urushni muvaffaqiyatli yakunlash maqsadi bilan yurish boshlash uchun juda qulay vaziyat deb baholashayotgan edilar. Rossiya urushdan chiqqandan so'ng, Germaniyaga faqat bitta G'arbiy front qarshilik ko'rsatishi mumkin edi.

Barcha kuchlar va vositalarni g'arbdagi hal qiluvchi hujumga yo'naltirish haqida qaror bo'lishiga qaramay 1918-yil boshida ham Sharqiy frontda 50 dan ortiq piyoda va kavaleriya diviziyalari saqlanayotgan edi¹³².

Agarda Germaniya ko'rsatilgandek barcha kuchlarini g'arbgacha yo'naltirish edi rejalashtirilgan hujum amalga oshishi va o'zi uchun qulay bo'lgan, tinchlik shartnomasiga erishishi mumkin edi. Lekin bu uchun u qaysidir ma'noda sharqdagi da'volaridan voz kechishi kerak edi. Bu german mentalitetining bosqinchilik tabiatiga xos emas edi¹³³.

Fransiya va Belgiyaga hal qiluvchi yurishni rejalashtirilishi bilan bir vaqtning o'zida sharqdagi hujumlarni ham davom ettirildi, kayzer Germaniyasining Gildenburg va Lyudendorf boshchiligidagi harbiy rahbarlari mamlakatni va armiyani va'da qilingandek g'alabaga emas, balki mag'lubiyatga va milliy halokatga olib bordi¹³⁴.

Birinchi jahon urushi yillarida Germaniya va unga qarshi Antanta ittifoqi davlatlari ham Yaqin Sharq mamlakatlari uchun kurashni kuchaytirishdi, ammo

¹³¹ История первой мировой войны 1914-1918 гг. — М.: Наука, 1975. С. 268

¹³² История первой мировой войны 1914-1918 гг. — М.: Наука, 1975. С. 264

¹³³ История первой мировой войны 1914-1918 гг. — М.: Наука, 1975. С. 269

¹³⁴ История первой мировой войны 1914-1918 гг. — М.: Наука, 1975. С. 269

buning natijasida millionlab askarlar halok bo'lishadi. Germaniya uchun esa urush butunlay foydasiz bo'ldi deyish mumkin.

Birinchi jahon urushi boshlanar ekan Germaniya hukmron doiralari Yaqin Sharq, Kavkazorti va ularga qo'shni bo'lgan va Usmoniylar Turkiyasi nazorati ostida bo'lgan yerlarda o'zlarining tasirin oshirishga harakat qilib kelishdi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan Bag'dod temir yo'li va u bilan bog'liq muammolarning xalqaro munosabatlarga tasiri masalasi keng miqyosli masalaga aylangandi.

Xulosa

Mavzuning xulosasi shundan iborat bo'ladiki, Fors ko'rfazi bir necha o'n yilliklardan, balki asrlar davomida insoniyatni o'ziga jalb qilib kelgan. Bunda neftning emas balki uning geografik jihatdan juda qulayligini takidlab o'tish o'rinli bo'lardi. Sababi g'arb va sharq mamlakatlari o'rtasidagi savlo aloqalari aynan shu hudud orqali o'tardi va yevropaliklarning Hindistonga borishidagi asosiy yo'l ham shu yerdan o'tishi uning xalqaro ahamiyatini har doim yuqori darajada bo'lishini taminlagan.

XIX asrning oxirlariga kelganda dunyoning yetakchi davlatlari o'zlari uchun go'yoki yangi yerlarni egallash va ularni nazorat qilish bahonasida boshqa bir xalq vakillarini o'zlariga bo'ysindirish va ularning mehnati samarasini o'zlashtirish, ularga qarashli yer osti va yer usti boyliklarini o'zlariniki qilib olish uchun harakatlari odatiy xolga aylanib qoldi. Shu bilan birga ularning shiorlari madaniyatsiz xalqlarga madaniyat olib borish va boshqalardan iborat edi, vaholanki yevropaliklar tomonidan bo'ysindirilayotgan xalqlar o'tmishda va shu davrda ham yuksak madaniyat egalari va davomchilari edilar.

1898- yilda dunyoda iqtisodiy birinchi qudratli davlatga aylangan AQSh bo'lingan dunyoni qaytadan bo'lib olishni boshlab berdi va juda zaiflashib qolgan mustamlakachi davlatlardan biri Ispaniya va uning mustamlakalarini tortib olish uchun Kubadagi qo'zg'olonga yordam berish bahonasida harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Natijada Kuba, Filippin orollari kabi hududlar yangi nazorat tartiblariga o'tadi. Bu kelajakda yangi urushlarning boshlanib ketishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XX asr boshlarida mazkur jarayon juda kuchayib ketdi. Ilmiy tadqiqot ishlari ham harbiy maqsadlarni ko'zlab olib boriladi va harbiy qurollarning yangi turlari ishlab chiqarilishi ommaviylashib ketadi.

Yangi bozorlar va xom ashyo manbalariga ega bo'lish ilinjida buyuk davlatlar turli xil nayranglarni va harbiy avantyuralarni ham o'ylab topishardi. Yaqin Sharq hududi esa ana shunday kurashlarning diqqat markaziga aylanib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авдеева В.И. Германия XVII-XX вв. М., 2001.
2. Аветян А.С. Германский империализм на Ближнем Востоке. - М., 1966.
3. Бондаревский Г.Л. Борьба империалистов за господство над Персидским заливом на рубеже XIX и XX вв. Ташкент, 1955.
4. Бондаревский Г. Л., Багдадская дорога и проникновение германского империализма на Ближний Восток, Таш., 1955.
5. Бондаревский Г.Л. Английская политика и международные отношения в бассейне Персидского залива (конец XIX начало XX вв.) М., 1968.
6. Бодянский В.Л. Бахрейн.(К истории стран Персидского залива). М., 1962.
7. Брукс М. Нефть и внешняя политика. М., 1949.
8. Васильев А.М. История Саудовской Аравии (1745 - конец XX в.) М., 1999
9. Вульф А.С. Экономический империализм в Азии и Африке. М., 1923.
10. Галеви Э. История Англии в эпоху империализма. М., 1937. Т.1.
11. Гальперин А.Л. Англо-русский союз. М., 1947.
12. География нефти. М., 1954.
13. Денни Л. Борьба за нефтяную монополию. М., 1934.
14. Ерусалимский А. С., Внешняя политика и дипломатия германского империализма в конце XIX в., 2 изд., М., 1951.
15. История первой мировой войны 1914-1918 гг. — М.: Наука, 1975
16. Князев А.Г. Персидский залив: истоки напряженности. М., 1988.
17. Колониальный Восток. Социально-экономические очерки. М., 1924.
18. Лазарев М.С. Крушение турецкого господства. М., 1989.
19. Луцкий В.Б. Арабские страны. М., 1947.
20. Манукян А., Казарез К. Капиталистический рынок нефти. М., 1953.
21. Пипия Г.В. Германский империализм в Закавказье в 1910-1918 гг. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1978
22. Медведко Л.И. Ветры перемен в Персидском заливе. М., 1982.

23. Павлович М. Борьба за Азию и Африку. Л., 1924.
24. Санталов А. А. Империалистическая борьба за источники сырья. М., 1954.
25. Силин А.С. Экспансия германского империализма на Ближнем Востоке накануне I мировой войны (1908-1914). М., 1976.
26. Силин А.С. Экспансия Германии на Ближнем Востоке в конце XIX века. М., 1971.
27. Сокольская Н. Ф. Роль Багдадской железной дороги в империалистической экспансии Германии накануне первой мировой войны. Идеиная борьба в эпоху империализма в странах Западной Европы и Америки. М., 1983.
28. Туманович Н.Н. Европейские державы в Персидском заливе в XVI-XIX вв. М., 1982.
29. Туполев Б. М Германский империализм в борьбе за «место под солнцем». М., 1991.
30. Шумов С.А, Андреев А.Р. Ирак: история, народ, культура Документальное историческое исследование. - М.: Монолит-Евролинц-Традиция, 2002.

ILOVALAR